**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING**
**2021/2022 O‘QUV YILI 9- YIG‘ILISHI**
**BAYONI**

**2022-yil 7- may** **Buxoro shahri**
**Katta yig‘inlar zali** **soat 9:30**

**BuxDU kengashi raisi - O.X. Xamidov**
**BuxDU kengashi kotibi - N.G. Dilova**
**BuxDU kengashi a’zolari umumiy soni: 73 nafar. Qatnashdi: 67 nafar kengash a’zosi va taklif qilinganlar (ro‘yxat asosida)**

**KUN TARTIBI**

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o‘quv yilining 9-yig‘ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Kengash raisi bugungi 9 - kengash yig‘ilishida 73 nafar kengash a’zosidan 67 nafari ishtirok etayotganligini, 6 nafar kengash a’zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma’lum qilib, yig‘ilishni ochish to‘g‘risidagi masalani kengash a’zolari hukmiga havola etdi. Kengash a’zolari yig‘ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma’qullashdi.
Shundan so‘ng, kengash kun tartibi o‘qib eshittirildi.

**KUN TARTIBI:**

**I. 2021/2022 o‘quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo‘nalishi bo‘yicha:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev boshchiligida “Agrar sohada ta’limni yanada rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi loyihalarning borishi masalalari” bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish yuzasidan universitetida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to‘g‘risida.
***Ma’ruzachi:*** *universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidov*

**II. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:**

**2.1.** Universitetda yangi 2022-2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik holati, maqsadli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha
**2.2.** Buxoro davlat universitetida talabalar amaliyotlarining tashkil etilish holati hamda Davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik to‘g‘risida
***Ma’ruzachi:*** *O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b. R.Jumayev*

**III. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi yo‘nalishi bo‘yicha:**

**3.** Universitetda reyting ko’rsatkichlari bo’yicha 2022-yil 1-chorakda kafedralar tomonidan amalga oshirilgan ishlar to’g’risida
***Ma’ruzachi:*** *Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig’i Z. Nurov*

**IV. Marketing va talabalar amaliyoti yo‘nalishi bo‘yicha:**

**4**. Universitet taqsimot komissiyasi tomonidan 2021/2022 o‘quv yili bitiruvchilari (bakalavriat va magistrlari)ni ishga taqsimlash va ishga yuborish yo‘llanmalarini rasmiylashtirish to‘g‘risida
***Ma’ruzachi:*** *Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i S. Xamidov*

**V. Tanlovlar.**

**5.1.** BuxDU kafedra mudiri, dotsent, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida

**5.2.** BuxDUning PI kafedra mudiri, dotsent, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida

*(Kengash kotibi N.Dilova)*

**VI. Turli masalalar.**

**6.1.** Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.

**6.2**. Universitetda ta’lim yo‘nalishlari va fakultetlar bo‘yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyasini ishlab va tasdiqlash to‘g‘risida

**6.3.** O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. G.I. Toirova rahbarligidagi “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish atamalari elektron izohli lugati va xalqaro ISO standartlarini davlat tiliga tarjima qilish integratsion platforma yaratish” innovatsion loyihasini tasdiqlash to‘g‘risida

**6.4.** Kafedra professor-o’qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to’g’risida.

**6.5.** Buxoro tarixi kafedrasi huzuridagi “Tarixiy madaniy merosni o’rganish, xujjatlashtirish va saqlash mintaqaviy ilmiy tadqiqot markazi” Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida

**6.6.** Qo‘shma ta’lim dasturlarida mutaxassislik fanlaridan dars o‘tadigan o‘qituvchilarga (til sertifikati kamida V2) ustama berish to‘g‘risida

**6.7.** Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi 11-2-19 guruh talabasi Hikmatova Sevaraning oilaviy sharoitini hisobga olib, yakuniy nazoratni muddatdan oldin topshirishga ruxsat berish to‘g‘risida

**6.8.** “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini barqarorlashtirish to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-noyabrdagi 506-sonli buyrug‘ini inobatga olib BuxDUning “Odob-axloq kodeksi”ga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritishni Kengash muhokomasiga tavsiya etish haqida

**6.9.** Chet tillar (ingliz, fransuz, nemis tili) fanlari bo'yicha malakaviy imtihon dasturi va baholash mezonini tasdiqlash to'g'risida

**6.10.** Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida.

**6.11**. “Innovatsion g’oyalar yetakchisi” ko’krak nishoni tanloviga nomzodlarni tavsiya etish to’g’risida

**Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?**

**Ovozlar:** tasdiqlansin.

**RAIS:** kun tartibini tasdiqlash to‘g‘risida taklif bo‘ldi. Uni ovozga qo‘yaman.
Tarafdorlar 67 nafar
Qarshilar – yo‘q.
Betaraflar – yo‘q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o‘tamiz.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

**I. 2021/2022 o‘quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo‘nalishi bo‘yicha:**

**1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev boshchiligida “Agrar sohada ta’limni yanada rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi loyihalarning borishi masalalari” bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish yuzasidan universitetida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, Kengash raisi) - Keyingi yillarda dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yerlaridan samarali foydalanish va ularda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmlarini oshirish, qishloq aholisining daromadi va turmush darajasini yaxshilashga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da belgilanganidek, mamlakatimiz “Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish”da qo‘zda tutilgan tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Agrar sohada ta’limni yanada rivojlantirish masalalari hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida fakultetda bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan,

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining 2019-yil 10-iyundagi 513-son buyrug‘iga muvofiq Buxoro davlat universitetida Biologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) va Tuproqshunoslik ta’lim yo‘nalishlari negizida Agronomiya va biotexnologiya qo‘shma dasturlar fakultetini tashkil etish to‘g‘risidagi buyruqqa asosan fakultetda agronomiya, biotexnologiya, agrokimyo va agrotuproqshunoslik, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi bo‘yicha xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish belgilangan. Bugugi kunda Tuproqshunoslik kafedrasida 7 ta yangi yo‘nalish ochilgan. (60811300 – Qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi, 60810700 – Agrokimyo va agrotuproqshunoslik, 60112400 – O‘simliklarni himoya qilish, 60710200 – Biotexnologiya, 60811800 – Mevachilik va uzumchilik, 60811900 – Sabzavotchilik polizchilik va kartoshkachilik, 60812000 - Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish) hozirda “Agronomiya va biotexnologiya” fakulteti huzurida 60812100-Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ixtisosligi bo‘yicha bakalavr qabulini shakllantirish bo‘yicha asosnomalar taqdim yetilgan.

***Quyidagi loyihalar ustida ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda.***

Viloyatda soya va mosh urug‘chiligini tashkil yetish va tuproq unumdorligini oshirish;

Viloyatda poliz- ko‘chatlaridan zamonaviy usullaridan foydalanish;

Buxoro viloyati tuproq iqlimiga mos, uzum navlarini payvand asosida ko‘paytirish;

Buxoro viloyati sharoitida bedaning birinchi o‘rishiga zarar yetkazadigan fitonomus zararkunandasiga qarshi kurash choralari;

Buxoro viloyatida tuproq iqlim sharoitida olma va nokni o‘sish hosildorligini istiqbolli payvandtak – kombinasiyalari va ko‘chat qalinligiga bog‘liqligini asoslash va ilmiy tavsiyalar berish;

Yuksak suv usimliklari ryaska va azolla biomassalarini qayta ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ozuqa bazasini yaratish;

Mikroskopik va yuksak o‘simliklarni ishlab chiqarish sharoitida ko‘paytirish texnologiyasini yaratish va ularni tabiiy ozuqa sifatida baliqchilik hamda parrandachilikda qo‘llash;

Ishlab chiqarish korxonalari oqova suvlarini yuksak suv o‘simliklari ta’sirida tozalash biotexnologiyasi va ulardan xalq xo‘jaligida foydalanish;

Bugungi kunda “Buxorobaliq” MCHJ hududida Buxoro davlat universitetining ilmiy-amaliy laboratoriyasi tashkil qilingan. Ushbu laboratoriyada ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va ilmiy-

amaliy seminarlarni o‘tkazish uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Agronomiya va biotexnologiya fakultetida Biotexnologiya va ixtiologiya ilmiy laboratoriya tashkil qilingan bo‘lib, professor Bo‘riyev Sulaymon Bo‘riyevich boshchiligida biologiya kafedrasi mutaxassis professor-o‘qituvchilari va tayanch doktorantlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqot ishlari aynan agrar sohaning muhim tarmog‘i hisoblangan baliqchilik sohasini rivojlantirishning maqsad va vazifalarni ochib beradi. Jumladan: xlorella, azolla, ryaska, artemiya dafniya kabi organizmlar o‘stirilib, baliqchilik xo‘jaliklarida baliq mahsuldorligini oshirish maqsadida qo‘llanib kelinmoqda. A.M. Qobilov, E.B. Jalolov va Z.F. Xadjayevalar tuban-yuksak suv o‘tlarini ko‘paytirish va baliqchilikda qo‘llash, L.T. Yuldoshov chiqindi oqava suvlarni suvo‘tlari bilan tozalash biotexnologiyasi, N.A. Shamsiyev va F.Q. Shodmonovlar ko‘llar ixtiofaunasini o‘rganish, H.M.Toshov, Sh.R. Sharopova, J.R. Rayimovlar Buxoro viloyati suvliklari gidrobiologiyasi yuzasidan ilmiy ishlarni bajarib kelmoqdalar.

Bugungi kunda ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida Biologiya kafedrasi mutaxassis olimlari tomonidan O‘zbekiston respublikasi Innovatsiyani rivojlantirish vazirligiga 2,1 mlrd so‘mlik amaliy loyiha tijoratlashtirish uchun topshirilgan. Shuningdek respublika miqyosida Namangan viloyatidagi “Pokiza Baliq” baliqchilik fermer xo‘jaligi bilan 50 mln, Xorazm viloyati “Bekjan Usta” baliqchilik fermer xo‘jaligi o‘rtasida 50 mln so‘mlik, “Xlorella Excel Group” MCHJ shrtasida 80 mln so‘mlik xo‘jalik shartnomalari tuzilib, baliq maxsuldorligini oshirish borasida ilmiy tavsiyalar berib borilmoqda. Bundan tashqari Buxoro viloyati baliqchilik fermer xo‘jaliklari bilan biologiya kafedrasi o‘rtasida baliq maxsuldorligini oshirish uchun xo‘jalik shartnomalari bajarilmoqda. Jumladan, “Buxorobaliq” MCHJ va “Temir Tolib Omad” MCHJlar bilan xo‘jalik shartnomalari imzolangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida 20-dekabr kuni oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, bu boradagi ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida baliqchilik sohasini rivojlantirish va kooperatsiya asosida baliq yetishtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazildi. Ushbu yig‘ilish yuzasidan baliqchilik tarmoqlarini rivojlantirish borasida Buxoro davlat universiteti biologiya kafedrasi mutaxassis olimlari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning yo‘l xaritasi tuzib olindi.

Universitet rahbariyati tomonidan fakultet talabalarini ish bilan ta’minlash maqsadida tadbir tashkil etildi. Tadbirda “Tadbirkor ayol” O‘zbekiston ishbilarmon ayollar uyushmasi Buxoro viloyati hududiy bo‘limi raisi Dilbar Axmedova, “Banoaz tekstil” MCHJ direktori Matob Adilova, “Fayz qurilish mollari” MCHJ direktori Dilorom Fayziyeva qatnashdi. Uchrashuvda yoshlar tomonidan Human Resources, marketing, iqtisodchi, dasturchi, issiqxonachilik, laborantlik sohasida savollar kelib tushdi. Uchrashuv mobaynida talabalar o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob oldi. Uchrashuv so‘ngida tomonlarning kelishuvi asosida universitet hamda tashkilotlar bilan memorandum imzolandi.

Fakultetda issiqxona tashkil etilgan bo‘lib, turli xil gul ko‘chatlari ko‘paytirilmoqda. Pomidorning Pantana va mahalliy navlar ustida ilmiy tajribalar qo‘yilgan. Shuningdek, 0,86 ga yer maydonida bug‘doy, kartoshka, qovoq va bir qancha sabzavot va poliz ekinlari ustida ilmiy tajribalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev boshchiligida “Agrar sohada ta’limni yanada rivojlantirish hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi loyihalarning borishi masalalari” bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish yuzasidan universitetida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to‘g‘risida Buxoro davlat universiteti kengashi

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori O.X.Xamidovning agrar sohada ta’limni yanada rivojlantirish masalalari hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi loyihalarning borishi yuzasidan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Yaqin kelajakda Buxoro davlat universiteti huzurida Agrobiotexnologiya va oziq – ovqat xavfsizligi instituti tashkil etish rejasi tuzilsin. (mas’ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari).

3. Agronomiya va biotexnologiya fakulteti qoshida markaziy ilmiy laboratoriya tashkil etilsin. (mas'ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari).

4. Yosh izlanuvchilar uchun maqsadli doktorantura (PhD) ga kvotalar oshirilsin. (mas'ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari).

5. 2022 – 2023 o'quv yilidan boshlab 60812100-Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalish bo'yicha bakalavr ta'lim yo'nalishi ochilsin. (mas'ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari).

6. Buxoro viloyati tuproq iqlim sharoiti va o'simliklaridan kelib chiqib ilmiy loyihalar ishlab chiqish va uni moliyalashtirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, funtamental amaliy va innovatsion loyihalar, davlat grantlari tanlovlarda hamda startap loyihalari asosida bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlarida fakultet professor-o'qituvchilarining natijadorlik ko'rsatkichlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilsin (mas'ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari)

7.Agronomiya va biotexnologiya fakultetida faoliyat olib borayotgan har bir professor-o'qituvchilar kamida 2 donadan Scopus, Web of Science kabi xalqaro ma'lumotlar bazalariga kiritilgan jurnallarda hamda OAK tasarrufidagi (xalqaro va respublika) miqyosidagi ilmiy jurnallarda 2 donadan ilmiy maqolalar chop etish choralari ko'rilsin (mas'ul: IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari).

8. Agronomiya va biotexnologiya fakultetida faoliyat olib borayotgan har bir professor-o'qituvchilarining Xirsh" indeksi (h-indeks) ko'rsatkichlarini oshirishga hamda ilmiy maqolalarning iqtiboslik sonini oshirishga alohida e'tibor qaratilsin (mas'ul: IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, Fakultet dekani, kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilar).

7. Fakultet professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, tayanch doktorant (PhD), doktorant (DSc) va mustaqil izlanuvchilarning doktorlik dissertatsiyalarini o'z vaqtida himoya qilinishi ta'minlansin (mas'ul: IT, I va IPKTB boshlig'i G.T. Zaripov, fakultet dekani, kafedra mudirlari, professor-o'qituvchilar).

8. Fakultetda qishloq xo'jaligi sohasidagi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'quv rejalaridagi mutaxassislik fanlarini kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda shakllantirishga alohida e'tibor qaratilsin. (mas'ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari)

9.Agrar yo'nalishi bo'yicha dunyoning nufuzli OTM lari bilan hamkorlikni kuchaytirib ko'shma ta'lim dasturlarni ochish ishlari yo'lga qo'yilsin. (mas'ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari)

10.Bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari mavzularini ish beruvchilarning muammolaridan kelib chiqqan holda shakllantirish hamda mavzularni chuqur tadqiq qilish maqsadida tor doirada berish yo'lga qo'yilsin. (mas'ul: prorektor, fakultet dekani, kafedra mudirlari)

11. Ushbu qaror ijro nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor v.b. A.T.Jo'rayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**II. <u>O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:</u>**

**2.1. Universitetda yangi 2022-2023 o'quv yiliga tayyorgarlik holati, maqsadli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha**

**2.2. Buxoro davlat universitetida talabalar amaliyotlarining tashkil etilish holati hamda Davlat attestatsiyasiga tayyorgarlik to'g'risida**

**ESHITILDI: R.Jumayev (**O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b) kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti 2022/2023 o'quv yiliga tayyorgarlik borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berdi.

Universitetda 2022/2023 o'quv yilida universitet talabalarining umumiy kontingenti **29 000** +30% (*bakalavriat – **27500** nafar, magistratura – **1500** nafar*) nafarni tashkil etishi kutilmoqda.

Hozirgi kunda 2-, 3-, 4-kurs bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun fakultet va mutaxassislik kafedralari hamkorligida ishchi o'quv rejalar tayyorlanmoqda.

2022/2023 o'quv yilida 1-2 – kurslar uchun kredit-modul tizimiga asoslangan Vazirlikning 2020 yil 30 iyundagi 357-sonli buyrug'iga asosan o'quv rejalarni tuzish vazifasi barcha mutaxassislik kafedralarga yuklatilgan.

Hozirgi kunda Iqtisodiyot va Fizika kafedralari tomonidan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari tomonidan o'quv rejalarning loyihalari tuzilib o'quv-uslubiy boshqarmaga taqdim qilingan.

2022/2023 o'quv yilida kuzgi semestrda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun O'quv-uslubiy boshqarma tomonidan maxsus shtab (bosh bino, 302-xona) tashkil etilgan. Mazkur shtabda universitetda faoliyat yuritayotgan HEMIS va UNIWORK platformalaridan foydalanish, mavsumiy o'quv rejalarni yaratish, kafedra o'quv yuklamalarini shakllantirish, yangi professor-o'qituvchilarni tizimdan ro'yxatdan o'tkazish va shu kabi masalalar bo'yicha maslahat va ko'mak beradigan xizmatlar tashkil qilingan. Shu bilan birga joriy yilnng avgust oyida yangi ishga qabul qilinadigan professor-o'qituvchilar uchun me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, ta'lim platformalaridan samarali foydalanish bo'yicha o'quvlar tashkil etish rejalashtirilgan.

Har bir fan bo'yicha mustaqil ish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish va belgalangan tartibda rasmiylashtirish zarur. Talabaning mustaqil ta'lim faoliyatini baholash uchun "Portfolio" tizimini takomillashtirish zarur.

**Asosiy vazifalar.**

1. 2022/2023 o'quv yili uchun o'quv reja va malaka talablarini loyihasiini tayyorlab, tasdiqqa taqdim qilish.
2. 1-kurs ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun barcha (4 yillik, 2 yillik) fan dasturlarini yaratish va tasdiqlatish.

## Buxoro davlat universitetida talabalar amaliyotining tashkil etilish holati (2021/2022 o'quv yili bahorgi jarayon) to'g'risida.

Bugungi kun talablari amaliyotlari sifatini oshirish masalasiga yangicha yondashishni, bajarilgan ishlar bilan cheklanmasdan, uni muntazam ravishda takomillashtirish, yangi uslub va shakllarni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish kabi muhim vazifalarni qo'ymoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari, fan va ijtimoiy sohani rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, ishlab chiqarish va boshqa korxonalarda talabalar amaliyotini tashkil etish muhimdir. Pedagogika kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan (*Sh.Sh.Olimov, B.T. Juraev Malakaviy amaliyot. Metodik qo'llanma. –B.: Buxoro davlat universiteti, 2021. -41 b.*) malakaviy amaliyotlarni tashkil etish yuzasidan metdik qo'llanma tayyorlandi.

Buxoro davlat universitetida pedagogik, malakaviy, o'quv, ishlab chiqarish, folklor, plener, dala amaliyotlar o'tab kelinmoqda. Buxoro davlat universitetida 2021/2022 o'quv yilida o'quv yuklama **1 050 423 soat**ni tashkil etib, bunda amaliyot soatlari ulushi **123 794 soat** (*11,8%*)ni tashkil qiladi. Pedagogik amaliyot soatlari **49 331 soat** (*39,8%), **74 463 soat*** (*60,1%*) malakaviy amaliyot hisoblanadi.

Universitetning 6 ta kafedrasida umumiy o'quv yuklamasining 20 %dan ortig'ini amaliyotlar tashkil qiladi.

| **№** | **Kafedra nomi** | **%** |
|---|---|---|
| **1.** | Tuproqshunoslik kafedrasi | 23,0 |
| **2.** | Turizm va mehmonhona ho'jaligi kafedrasi | 21,2 |
| **3.** | Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi | 20,2 |
| **4.** | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi | 20,4 |
| **5.** | Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi | 31,0 |
| **6.** | Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi | 24,4 |

Buxoro davlat universitetida **7 ta** fakultetda tayyorlanayotgan **20 ta** ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejaga binoan **2022 fevral** oyidan o'quv rejasiga asosan malakaviy va pedagogik amaliyotlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi NIZOM" talabalar bilimini baholashda kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bilan bir qatorda malakaviy amaliyot bo'yicha baholash mezonlari qo'llanilishi belgilangan.

Nizomning "**Talabalar bilimini baholash"** deb nomlangan **3-BOB, 28-bandida "**Talaba uzrli sabablarsiz malakaviy amaliyotga qatnashmagan, shuningdek malakaviy amaliyot yakunlari bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzdor hisoblanadi va kursdan qoldiriladi", - deb belgilangan. Ma'lumot o'rnida, Vazirlar Mahkamasining **2020 yil 31 yanvar**dagi **59-son** qarori bilan tasdiqlangan "*Oliy ta'lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida*"gi Nizomning **26-bandi**da O'quv rejasi asosida amalga oshirilgan malaka amaliyotlari va ta'tillar davrida talabalarning stipendiya olish huquqi saqlanishi belgilangan.

2021/2022 o'quv yilida amaliyotdan qarzdor talabalar **5 nafar**ni tashkil etadi. **1 nafari** Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, **1 nafari** Iqtisodiyot va turizm fakulteti, **2 nafari** San'atshunoslik va **1 nafari** Axborot texnologiyalari talabalari hisoblanadi. Fakultetlar tomonidan tegishli chora ko'rilmagan. Shuningdek, 2021/2022 o'quv yili bitiruvchilariga imtiyozli diplomlarni belgilashda amaliyot natijalarini ham inobatga olish muhim hisoblanadi.

| **№** | **Talaba F.I.Sh.** | **Amaliyot turi** | **Guruh nomi** | **Ta'lim yo'nilishi** | **O'qitish tili** |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Faruk-djalolova Mehrangiz Botir qizi | Malakaviy amaliyot | 14-6BTU-19 | Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish | O'zbek |
| 2 | Izzatov Islom Murodilloevich | Kvalifikatsionnaya praktika | 3-2XS-18 | Xizmatlar soxasi(faoliyat turlari va yo'nalishlari bo'yicha) | Rus |
| 3 | Hakimova Dilnoza Erkin qizi | Malakaviy amaliyot | 12-1TS-19 | Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi | O'zbek |
| 4 | Kamolova Zarnigor Zokirovna | Malakaviy amaliyot | 12-1TS-19 | Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi | O'zbek |
| 5 | Raupova Gulchiroy G'iyos qizi | Pedagogik amaliyot | 1-1PMIK-18 | Kasb ta'limi:informatika va axborot texnologiyalari | O'zbek |

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 10 sentabrdagi 20-2018-son «Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i *[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 8 oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3076]* ga asosida universitet **amaliyot soatlari** hisoblangan.

| **8.** | **Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari amaliyotiga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash.** |
|---|---|

| | |
|---|---|
| Malakaviy amaliyot oʻtayotgan har bir talaba uchun bir ish kuniga — **0,5 soat**. Bunda:<br>oʻquv amaliyotiga rahbarlik qilish 1 akadem guruh uchun bir ish kuniga — **6 soat**;<br>ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotga rahbarlik qilish:<br>agar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot oʻtalayotgan tashkilot oliy ta’lim muassasasi joylashgan hudud doirasida boʻlsa, bir ish kuniga 1 akadem guruh uchun — **3 soat**;<br>agar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyot oʻtalayotgan tashkilot oliy ta’lim muassasasi joylashgan hudud doirasida boʻlmasa, amaliyotga rahbarlik qilish bir ish kuniga — **6 soat**.<br>Individual holda oʻtkaziladigan amaliyotlarda butun amaliyot davriga bir talaba uchun — **2 soat**. | Mazkur ish turi boʻyicha professor-oʻqituvchining soatlari hajmi oʻquv ishlari yuklamasining **20% idan** oshmasligi lozim.<br>Mazkur ishlarning bajarilganligi amaliyot oʻtash boʻyicha oliy ta’lim muassasasi buyrugʻi, talabaning amaliyot kundaligi va amaliyot uchun baho qoʻyilgan tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi. |
| **11.** | **Magistratura talabalarining ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlik qilish. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun klinik ordinatorlarning oʻquv va klinik amaliyotiga rahbarlik qilish.** |
| bir oʻquv yiliga bitta talaba uchun — **50 soat**. Bir oʻquv yiliga bitta klinik ordinator uchun — **50 soat**. | Professor yoki fan doktori 5 nafargacha, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 3 nafargacha talabaning ilmiy pedagogik faoliyati va amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Professor, fan doktori, dotsent, fan nomzodi va mutaxassis 4 nafargacha klinik ordinatorning oʻquv va klinik amaliyotiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin.<br>Talabaning ilmiy pedagogik faoliyatiga rahbarlik qilganlik talabaning kalendar ish rejasidagi topshiriqlarni bajarishi bilan aniqlanadi. Amaliyotga rahbarlik qilganlik oliy ta’lim muassasasining amaliyot oʻtash boʻyicha buyrugʻi, talabaning amaliyot kundaligi va amaliyot uchun baho qoʻyilgan tegishli qaydnomalar asosida aniqlanadi. |

Vaqt me’yorlariga asosan Bakalavriat ta’lim yoʻnalishi talabalari amaliyotiga rahbarlik qilish, ularning hisobotlarini tekshirish va baholash ish turi boʻyicha professor-oʻqituvchining soatlari hajmi oʻquv ishlari yuklamasining 20% idan oshmasligi belgilangan boʻlsada, **113 nafar** professor-oʻqituvchining oʻquv yuklamasida amaliyot soatlari 20 %dan koʻp.

Bu koʻrsatkich Buxoro tarixi, Biologiya, Servis sohasi iqtisodiyoti, Nemis va fransuz tillari, Axborot texnologiyalari, Ingliz adabiyotshunosligi, Psixologiya kafedralarida **1 nafari**da, Ingliz tilshunosligi, Fizika, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedralarida **2 nafari**da, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika, Maktabgacha ta’lim, Differensial tenglamalar, Oʻzbek tili va adabiyoti kafedralarida **3 nafari**da, Organik va fizkoloid kimyo kafedrasida **4 nafar**, Boshlangʻich talim metodikasi kafedrasida **5 nafar**, Pedagogika kafedrasida **6 nafar**, Jahon tarixi kafedrasida **9 nafar**, Ekologiya va geografiya, Rus tili va adabiyoti kafedralarida **10 nafari**da, Tuproqshunoslik, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti, Ingliz adabiyoti va stilistika kafedralarida **14 nafar** professor-oʻqituvchilarning oʻquv yuklamasida vaqt me’yorlariga amal qilinmagan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

**1.** Oʻquv ishlari boʻyicha prorektor v.b. R.Gʻ. Jumaevning 2022/2023 oʻquv yiliga tayyorgarlik borasida olib borilayotgan ishlar toʻgʻrisidagi hamda talabalar amaliyotining tashkil etilish holati (2021/2022 oʻquv yili bahorgi jarayon) toʻgʻrisidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin. 2021/2022 oʻquv yili bitiruvchilariga imtiyozli diplomlarni belgilashda amaliyot natijalari ham inobatga olinsin.

**2.** 2022/2023 oʻquv yili professor-oʻqituvchilar oʻquv yuklamasini shakllantirishda vaqt me’yorlariga qat’iy amal qilinsin. (**mas’ul** kafedra mudirlari, **nazorat**: Oʻquv-uslubiy boshqarma).

**3.** 2022/2023 oʻquv yilini samarali tashkil etish boʻyicha “Yoʻl xaritasi” ishlab chiqilsin (muddat: 15 maygacha).

**4.** Ushbu qaror ijrosi nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b. R.Jumaev zimmasiga yuklatilsin.

---

**III. <u>Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi yo‘nalishi bo‘yicha:</u>**

**3. Universitetda reyting ko’rsatkichlari bo’yicha 2022-yil 1-chorakda kafedralar tomonidan amalga oshirilgan ishlar to’g’risida**

**<u>ESHITILDI:</u> Z. Nurov** (Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig’i) kengash a’zolariga 2022-yil I – choragidagi reyting ko‘rsatkichlarining fakultetlar va kafedralar bo‘yicha tahlili haqida ma’lumot berdi.

3 oy davomidagi faoliyatimizda universitet reytingini respublika oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ko‘tarishda nima ishlarni amalga oshirdik, qaysi sohada yutuqlarga erishdik, qaysi parametrlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarimiz past, qaysi sohada kamchiliklarimiz borligini tahlil qilishimiz va qolgan choraklarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarni belgilashimiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-son «Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining 2019-yil 18-iyuldagi 13-son va 35-q/q qo‘shma qaroriga asosan «Oliy ta’lim muassasalari reytingini hisoblash metodikasi» tasdiqlandi.

Shu asosda kafedra va fakultetlar hamda universitetning 2022-yil I–choragidagi faoliyati reyting ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tegishli ma’lumotlar ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha (asosan, dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMlarning PhD va DSc ilmiy darajasini olgan professor-o‘qituvchilar soni, dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMlarda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazgan professor-o‘qituvchilar soni, fan doktori (DSc) ilmiy darajasi yoki professor unvoniga ega professor-o‘qituvchilar, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasi yoki dotsent unvoniga ega professor-o‘qituvchilar ulushi, xalqaro ko‘rsatkichlar ma’lumotlariga ko‘ra professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar, xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar soni, darsliklar soni, xalqaro seminarlarda, ilmiy yoki ta’lim loyihalarida (xorijiy, qo‘shma) ishtirok etgan talabalar soni, xalqaro olimpiadalarda va nufuzli tanlovlarda sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan va mukofotlarga sazovor bo‘lgan talabalar salmog‘i va h. k.) e’tiborlaringizga havola etiladi. Ma’lumotlar 37 ta kafedra hisobidan tahlil qilingan.

1-jadvalda universitetning 2018, 2019, 2020, 2021 hamda 2022-yil I–choragi davomidagi reyting ko‘rsatkichlarining qiyosiy ma’lumotlari keltirilgan (1-jadval ma’lumotlariga qarang).

**Buxoro davlat universitetining 2017, 2018, 2019, 2020 va 2021lardagi reyting ko‘rsatkichlarining qiyosiy jadvali**

**1-жадвал**

| № | Ko‘rsatkichlar | 2018 yil | 2019 yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil 1-chorak |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | OTM ning asosiy shtatdagi professor-o‘qituvchilar soni, nafar | 606 | 811 | 970 | 904 | 1087 |
| 2 | Kunduzgi bo‘limda o‘qiyotgan talabalar soni, nafar | 8 990 | 12 749 | 16 485 | 19 376 | 21 409 |
| 3 | Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMlarning PhD yoki DSc ilmiy darajasini olgan professor-o‘qituvchilar soni, nafar | 1 | 6 | 6 | 6 | 6 |
| 4 | Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMlarida o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazgan professor-o‘qituvchilar, nafar | 21 | | 9 | 31 | 12 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga yoki professor unvoniga ega PO‘lar ulushi | 31 | 34 | 40 | 50 | 50 |
| 6 | Fan nomzodi (RhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent unvoniga ega PO‘lar ulushi | 150 | 169 | 195 | 240 | 263 |
| 7 | Ilmiy salohiyat, % | 29,6 | 25 | 24,2 | 32,1 | 27,0 |
| 8 | Hisob yilida (2018, 2019, 2020, 2021, 2022) dissertatsiya himoyalari soni (shu jumladan, berilgan professor yoki dotsent ilmiy unvonlari ham) | 24 | 35 | 58 | 79 | 23 |
| 9 | Xalqaro ko‘rsatkichlar ma’lumotlariga ko‘ra professor-o‘qituvchilarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar | 67 | 782 | 5231 | 29 467 | 37 474 |
| 10 | Xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar soni | 54,33 | 367,87 | 550 | 1118,8 | 344,5 |
| 11 | Respublika ilmiy jurnallaridagi (OAK ro‘yxatidagi) ilmiy maqolalar soni | 463,64 | 360,82 | 649,51 | 851,5 | 259 |
| 12 | Xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlari mablag‘lari so‘m | 16990,00 yevro | 1 317 813 439 | 506 228 468 | 2 386 452 399 | 214 000 000 |
| 13 | Sohalar buyurtmalari asosida o‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag‘lar, so‘m | 216 800 000 | 175 334 000 | 222 657 191 | 499 237 071 | 98 450 000 |
| 14 | Davlat grantlari asosida o‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag‘lar, so‘m | 443 416 000 | 644 839 000 | 829 987 608 | 1 512 672 078 | 585 000 000 |
| 15 | Nashr etilgan monografiyalar soni, ta | 15 | 30 | 52 | 133 | 42 |
| 16 | Intellektual mulk uchun olingan himoya hujjatlari (patentlar) soni, ta | 2 | 1 | 2 | 2 | 1 |
| 17 | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ga oid dasturlar va elektron bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar soni, ta | 28 | 55 | 58 | 105 | 65 |
| 18 | Darsliklar soni, ta | 11 | 16 | 21 | 66 | 14 |
| 19 | O‘quv qo‘llanmalar soni, ta | 24 | 40 | 69 | 174 | 35 |
| 20 | Xorijiy o‘qituvchilar soni, nafar | 3 | 34 | 49 (shu jumladan 38 ta onlayn) | 44 | 26 |
| 21 | Xorijiy talabalar soni, nafar | 316 | 324 | 322 | 282 | 281 |
| 22 | Akademik almashuv dasturlarda ishtirok etuvchi talabalar soni | 6 | 77 | 7 | 12 | 6 (hujjatlar bo‘limga yetkazilmagan |
| 23 | Xalqaro konferensiya va seminarlarda, ilmiy yoki ta’lim loyihalarida (xorijiy, qo‘shma) ishtirok etgan talabalar soni | 9 | 14 | 43 (shu jumladan 40 ta onlayn) | 134 | 119 (hujjatlar bo‘limga yetkazilmagan |
| 24 | Xalqaro konferensiya va seminarlarda, ilmiy yoki ta’lim loyihalarida (xorijiy, qo‘shma) ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar soni | 31 | 41 | 122 (shu jumladan 114 ta onlayn) | 242 | 292 (hujjatlar bo‘limga yetkazilmagan |
| 25 | Horijiy tilda o‘qitiladigan o‘quv | 26 | 31 | 24 | 29 | 40 |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | kurs(fan)lari soni, ta | | | | | |
| 26 | Hisob yilida OTMni bitirgan bitiruvchilar soni, nafar | 1595 | 449 | 448 | 488 | 717 |
| 27 | Ishga joylashgan bitiruvchilar soni, nafar | 1185 (74,3 %) | 437 | 448 | 454 | - |
| 28 | Xalqaro olimpiadalarda va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sozovor bo'lgan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiya si sovrindorlari bo'lgan talabalar soni, ta | 5 | 22 | 1 ( 20 ta onlayn) | 35 | 48 (hujjatlar bo'limga yetkazilmagan |
| 29 | Respublika olimpiadalarda va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar soni, ta | 37 | 52 | 80 (shu jumladan 11 ta onlayn) | 132 | 14 (hujjatlar bo'limga yetkazilmagan |
| 30 | Sport klubi va seksiyalariga a'zo bo'lib, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi hamda sport tasnifiga (razryadga) ega bo'lgan talabalar soni | | 23 | 44 | 393 | 428 (hujjatlar bo'limga yetkazilmagan |
| 31 | Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha moddiy texnik bazaning holati, sport infratuzilmasining mavjudligi va jihozlanish darajasi | 15197 m2 | 17164 m2 | 17164,36 m2 | 17 197,36 m2 | 17 197,36 m2 |
| | **O'rni** | **38** | **28** | **24** | | |

### 1.1. 2022-yil I–choragi reyting ko'rsatkichlarining fakultetlar va kafedralar bo'yicha tahlili

**Nufuzli 1000 talikka kiruvchi OTMlarda PhD (falsafa doktori yoki fan nomzodi) yoki DSc olgan professor o'qituvchilar**

**2022-yil I–choragida 6 nafar,** jumladan, 3 nafari fizika-matematika, 2 nafari iqtisodiyot va turizm, 1 nafari filologiya fakultetiga faoliyat olib borayaptilar. 2021-yilda ham bu ko'rsatkich 6 nafar edi. Boshqa fakultetlarda bu ko'rsatkich 0 ga teng.

### 1.2.Dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMlarda o'quv mashg'ulotlari (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, seminar-treninglar) o'tkazgan professor-o'qituvchilar

**2022-yil 1–choragida** 12 nafar professor-o'qituvchilarimiz dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi OTMlarda o'quv mashg'ulotlari olib borgan. 2021-yilning 1-choragida esa ushbu band bo'yicha ko'rsatkich 7 tani tashkil etgan.

### 1.3.1. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga yoki professor unvoniga ega PO'lar ulushi

Hisobot yilining **I–choragida** fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar himoyasi qayd etilmadi. 50 nafar fan doktori (DSc) ilmiy darajali professor-o'qituvchilar soni o'zgarishsiz qoldi. Keyingi yildan Pedagogika instituti faoliyati aloxida baholanishini inobatga olsak, bu ko'rsatkichning pasayish ehtimoli kutilmoqda.

### 1.3.2. Fan nomzodi (RhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent unvoniga ega PO'lar

Fan nomzodi (RhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni esa **252** nafarni tashkil qildi. Keyingi yildan Pedagogika instituti faoliyati aloxida baholanishini inobatga olsak, bu ko'rsatkichning pasayish ehtimoli kutilmoqda.

### 1.4. Hisob yilida (2022) dissertatsiya himoyalari soni

Universitetda mazkur 3 oy mobaynida professor-oʻqituvchilarning (DSc) ilmiy darajasi boʻyicha himoyasi kuzatilmagan boʻlib, falsafa doktori (RhD) ilmiy darajasini olgan professor-oʻqituvchilar soni 12 nafarni tashkil etdi. Vaholanki, 2021-yil 1-chorakda bu koʻrsatkich 21 tani tashkil etgan.

### 1.5 Xalqaro koʻrsatkichlar ma'lumotlariga koʻra professor – oʻqituvchilarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar

Kafedralar boʻyicha olingan ma'lumotlarga koʻra, professor – oʻqituvchilarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar hisobot davrida universitet boʻyicha jami 37 400 ga yaqinlashdi (2021-yil dekabr holatida bu koʻrsatkich – 30 000 atrofida edi). Eng koʻp ixtiboslik Matematik analiz, Iqtisodiyot, Servis sohasi iqtisodiyoti, Musiqa ta'limi, Jismioniy madaniyat kabi kafedralarda kuzatildi.

### 1.6.1. Xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar

Xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar soni universitet boʻyicha 344 tani tashkil etadi. Jumladan, Maktabgacha va boshlangʻich ta'lim fakulteti 60 ta, Xorijiy tillar fakulteti pedagog-xodimlari tomonidan 53,5 ta, Filologiya fakulteti professor-oʻqituvchilari tomonidan 12 ta, Jismoniy madaniyat fakulteti 12 ta, San'atshunoslik fakulteti 26 ta, Pedagogika 107 ta, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 21 ta, Agronomiya va biotexnologiya fakulteti boʻyicha 14 ta, Tarix va madaniy meros fakulteti 22 ta, Fizika –matematika 10 ta, Tabiiy fanlar 9 ta, Axborot texnologiyalari 7 ta xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar chop etilgan.

Kafedralar kesimida tahlil qilinganda xalqaro jurnallarda ilmiy maqolalar soni Texnologik ta'lim kafedrasi 54 ta, Maktabgacha ta'lim va psixologiya kafedralari 35 tadan, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport 23 ta, Boshlangʻich ta'lim metodikasi va Musiqa ta'limi kafedralari 19 tadan, Pedagogika kafedrasi 18ta, Gumanitar yoʻnalishlarda chet tili kafedrasi 14, Ingliz tilshunosligi 12,5 ta, Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti 12 ta, Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi 10 taga yetganligi aniqlandi. Oʻzbek tilshunosligi, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika, Nemis va fransuz tillari hamda Iqtisodiyot kafedralarida 8 tadan maqola chop etilgan. Fizika (7 ta), Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi (7 ta), Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa (6 ta), Boshlangʻich ta'lim nazariyasi (6 ta), Ekologiya va geografiya (5 ta), Tuproqshunoslik (5 ta), Tabiiy yoʻnalishlarda chet tili (5 ta), Ingliz adabiyoti va stilistika (5 ta), Axborot texnologiyalari (4 ta), Milliy gʻoya, ma'naviyat asoslari va huquq (4 ta), Jahon tarixi (3ta), Turizm va mehmonxona xoʻjaligi (3 ta), Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari (3 ta), Matematik analiz (2 ta), Oʻzbek tili va adabiyoti (2 ta), Organik va fizkolloid ktmyo (2 ta), Umumiy va noorganik kimyo (2ta), Rus tili va adabiyoti (2 ta), Differensial tenglamalar (1 ta), Ingliz adabiyotshunosligi (1 ta) kafedralarida xalqaro jurnallardagi maqolalar soni kam. Buxoro tarixi kafedrasi ma'lumot taqdim etmadi.

### 1.6.2. Respublika ilmiy jurnallaridagi (OAK roʻyxatidagi) ilmiy maqolalar

Xorijiy tillar fakultetida 46,5 ta, Filologiya fakultetida 16 ta, Iqtisodiyot va turizm fakultetida 13 ta, Tarix va madaniy meros fakultetida 15 ta, Axborot texnologiyalari fakultetida 10 ta, Pedagogika fakultetida 7 ta, Maktabgacha va boshlangʻich ta'lim fakultetida 22 ta, Agronomiya va biotexnologiya fakultetida 21 ta, San'atshunoslik fakultetida 83 ta, Fizika-matematika fakultetida 7 ta, Tabiiy fanlar fakultetida 13 ta hamda Jismoniy madaniyat fakultetida 7 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Kafedralar boʻyicha tahlil qilinganda Musiqa ta'limi 57 ta, Tasviriy san'at va mg 26 ta, Ingliz tilshunosligi 18,5 ta, Maktabgacha talim 12 ta, Oʻzbek tilshunosligi 12 ta, Biologiya 12 ta, Servis sohasi iqtisodiyoti 9 ta, Tuproqshunoslik 9 ta, Boshlangʻich ta'lim metodikasi 7 ta, Ekologiya va geografiya 7 ta, Islom tarixi va manbashunosligi, Falsafa 6 ta, Axborot texnologiyalari 6 ta, Ingliz adabiyoti va stilistika 6 ta, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika 6 ta, Tabiiy yoʻnalishlarda chet tili 6 ta, Psixologiya 5 ta, Jmn va u 5 ta, Jahon tarixi 5 ta, Nemis va fransuz tillari 5 ta, guManitar yoʻnalishlarda chet tili 5 ta, Turizm va mehmonxona xoʻjaligi 4 ta,

matYematik analiz 4 ta, Oʻzbek tili va adabiyoti 4 ta, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari 4 ta, Organik va fizkolloid kimyo 4 ta, Milliy gʻoya, Maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi 4 ta, Boshlangʻich taʼlim nazariyasi 3 ta, Fizika 2 ta, Umumiy va noorganik kimyo 2 ta, Pedagogika 1 ta, Texnologik taʼlim 1 ta, Differensial tenglamalar 1 ta maqola chop etishgani maʼlum boʻldi. Iqtisodiyot, Ingliz adabiyotshunosligi, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport, Rus tili va adabiyoti, Buxoro tarixi kafedralari Respublika ilmiy jurnallarida (OAK roʻyxatidagi) ilmiy maqolalar chop etishmagani aniqlandi.

Hozirda Respublika ilmiy jurnallaridagi (OAK roʻyxatidagi) ilmiy maqolalar soni universitet boʻyicha 265,5 tani tashkil etadi (2021-yilning I choragida universitet boʻyicha OAK roʻyxatidagi ilmiy maqolalar soni 217 tani tashkil etgan edi).

### 1.7.1. Xorijiy ilmiy tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlari mablagʻlari

2022-yilda talabalar uchun grantlar, individual (yakka) tadqiqot uchun grantlar, yosh olimlar uchun grantlar, xorijga stajirovkaga yuborish uchun grantlarning mart oyigacha boʻlgan umumiy qiymati 214 mln. soʻmni tashkil etadi, ammo ushbu mablagʻlar universitet hisob raqamiga tushmasligi sababli reytingda inobatga olinmasligi mumkin.

### 1.7.2. Sohalar buyurtmalari asosida oʻtkazilgan tadqiqotlardan olingan mablagʻlar

2022-yilning mart oyi holatida kafedralarda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarilishi yuzasidan viloyatdagi turli tashkilotlar va sanoat korxonalari bilan umumiy summasi 98,45 mln. soʻmlik qiymatda fan va ishlab chiqarish oʻrtasidagi innovatsion-korporativ hamkorlik shartnomalari imzolangan. Xoʻjalik shartnomalarining amalga oshirilishini fakultetlar kesimida tahlilini koʻradigan boʻlsak, natijalari quyidagicha:

**Axborot texnologiyalari fakultetida** umumiy tushum miqdori 24 mln soʻmni tashkil etadi.

**Fizika-matematika fakultetida** umumiy tushum miqdori 23 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Xorijiy tillar fakultetida** umumiy tushum miqdori 17,2 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Agronomiya va biotexnologiya fakultetida** umumiy tushum miqdori 8 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim fakultetida** umumiy tushum miqdori 6 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Sanʼatshunoslik fakultetida** umumiy tushum miqdori 5 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Pedagogika fakultetida** umumiy tushum miqdori 5 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Tarix va madaniy meros fakultetida** umumiy tushum miqdori 5 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Iqtisodiyot va turizm fakultetida** umumiy tushum miqdori 3 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Filologiya fakultetida** umumiy tushum miqdori 2,25 mln. soʻmni tashkil etadi.

**Jismoniy madaniyat fakultetida** 2022-yilning birinchi choragida sohalar buyurtmalari asosida oʻtkazilgan tadqiqotlardan mablagʻ olinmagan.

### 1.7.3. Davlat grantlari asosida oʻtkazilgan tadqiqotlardan olingan mablagʻlar.

2022-yilning birinchi choragida umumiy summasi 584 533 000 soʻmga teng boʻlgan 1 loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur mablagʻ axborot texnologiyalari fakulteti amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi professor-oʻqituvchilari tomonidan jalb qilingan.

### 1.9.1. Nashr etilgan monografiyalar

Hisobot davrida universitet professor-oʻqituvchilari tomonidan nashr etilgan monografiyalar soni 42 ta boʻlib, fakultetlar kesimida tahlilini koʻradigan boʻlsak, natijalari quyidagicha:

Bu koʻrsatkich boʻyicha Xorijiy tillar 9, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 8, Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim fakulteti 6, Pedagogika fakulteti 6, Tarix va madaniy meros fakulteti 3, Maktabgacha va boshlangʻich taʼlim fakulteti 3 nomdagi monografiyani chop ettirishda mazkur

fakultet pedagog-xodimlar faoliyatini alohida ta'kidlash lozim. San'atshunoslik, fizika-matematika, Agronomiya va biotexnologiya, Tabiiy fanlar fakultetlari pedagog-xodimlari mos ravishda 2 monografiyalar chop etgan bo'lib tegishli kafedralarda bu sohada jiddiy e'tibor qaratilishi kerak.

Axborot texnologiyalari, Jismoniy madaniyat fakultetlari professor-o'qituvchilari tomonidan monografiyalar nashr etilmagan (8-jadval).

### 1.9.2.Professor-o'qituvchilar tomonidan ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar

2022-yilning birinchi choragida faqatgina Fizika kafedrasi o'qituvchisi Nazarova Nargiza Mustaqimovna tomonidan 1 ta patent olingan.

2020 va 2021-yillarda jami 2 tadan patent olinganini inobatga olsak, bu yo'nalishda barcha kafedralar faolligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

### 1.9.3.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga va elektron bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan

Hisobot davrida kafedralar tomonidan himoya qilinadigan materiallar soni 65 tani tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Axborot texnologiyalari kafedrasi 14 ta, Pedagogika kafedrasi 12 ta, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi 8 ta, Iqtisodiyot kafedrasi 6 ta, Psixologiya kafedrasi 4 ta, Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi 3 ta, Musiqa ta'limi 3 ta, Tasviriy san'at va MG kafedrasi 2 ta, Matematik analiz 2 ta, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi 2 ta, Rus tili va adabiyoti 2 ta, Maktabgacha talim, texnologik ta'lim, Tuproqshunoslik, Ekologiya va Geografiya, Boshlang'ich ta'lim metodikasi, Fizika, Umumiy va noorganik kimyo kafedralari esa 1 tadan guvohnomalar olishgan.

Turizm va mehmonxona xo'jaligi, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika, Biologiya, Ingliz adabiyoti va stilistika, Tabiiy yo'nalishlarda chet tili, Islom tarixi va manbashunosligi, Falsafa, Jmn va u, Nemis va fransuz tillari, Gumanitar yo'nalishlarda chet tili, Ingliz tilshunosligi, Organik va fizkolloid kimyo, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi, Jahon tarixi, O'zbek tili va adabiyoti, Ingliz adabiyotshunosligi, Differensial tenglamalar, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport, O'zbek tilshunosligi, Buxoro tarixi kafedralari bu ko'rsatkichlar bo'yicha natija ko'rsatishmagan.

### 2.2.1. Darsliklar

Hisobot davrida universitet bo'yicha 14 ta darslik yaratilgan bo'lib Pedagogika va Texnologik ta'lim kafedralari 3 tadan, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari, Iqtisodiyot, Servis sohasi iqtisodiyoti, Musiqa ta'limi, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi, Nemis va fransuz tillari, Boshlang'ich ta'lim metodikasi, Ingliz adabiyotshunosligi kafedralari esa 1 tadan darslik chiqarishgan.

Axborot texnologiyalari, Turizm va mehmonxona xo'jaligi, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika, Psixologiya, Biologiya, Matematik analiz, Tasviriy san'at va MG, Ingliz adabiyoti va stilistika, Tabiiy yo'nalishlarda chet tili, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa, JMN va U, Gumanitar yo'nalishlarda chet tili, Rus tili va adabiyoti, Maktabgacha talim, Ingliz tilshunosligi, Tuproqshunoslik, Organik va fizkolloid kimyo, Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi, Jahon tarixi, Ekologiya va geografiya, O'zbek tili va adabiyoti, Fizika, Umumiy va noorganik kimyo, Differensial tenglamalar, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport, O'zbek tilshunosligi, Buxoro tarixi (27 ta kafedra) professor-o'qituvchilari tomonidan birorta darslik tayyorlanmagan. Bu yo'nalish bo'yicha mazkur kafedralarda ishlarni jonlantirish kerak.

### 2.2.2. O'quv qo'llanmalar

Hisobot davrida universitet bo'yicha 35,5 ta o'quv qo'llanma tayyorlab nashr etilgan. Musiqa ta'limi 5 ta, Tasviriy san'at va MG 3 ta, Pedagogika 2,5 ta, shuningdek Texnologik ta'lim, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika, Ingliz adabiyoti va stilistika, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi, Gumanitar yo'nalishlarda chet tili, Maktabgacha talim,

Nemis va fransuz tillari, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedralari 2 tadan o‘quv qo‘llanma nashr ettirishgan va Tabiiy yo‘nalishlarda chet tili, JMN va U, Rus tili va adabiyoti, Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi, Ingliz adabiyotshunosligi, Differensial tenglamalar, O‘zbek tilshunosligi kafedralari 1 tadan o‘quv qo‘llanma nashr ettirishgan. Axborot texnologiyalari, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi, Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari, Psixologiya, Iqtisodiyot, Servis sohasi iqtisodiyoti, Biologiya, Matematik analiz, Ingliz tilshunosligi, Tuproqshunoslik, Organik va fizkolloid kimyo, Jahon tarixi, Ekologiya va geografiya, O‘zbek tili va adabiyoti, Fizika, Umumiy va noorganik kimyo, Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport, Buxoro tarixi kafedralari bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha natija ko‘rsatishmagan.

### 2.3.1. Xorijiy o‘qituvchilar soni

2022-yil 1-chorak holatida 26 nafar xorijlik professor-o‘qituvchilarning dars o‘tishlari uchun rektor buyrug‘i rasmiylashtirilgan. Jumladan, iqtisodiyot va turizm, fizika-matematika, xorijiy tillar, tabiiy fanlar, tarix va madaniy meros, filologiya, pedagogika, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakultetlarida xorijlik o‘qituvchilar mavjud.

### 2.3.2. Xorijiy talabalar soni

2022-yilda xorijlik talabalar soni 282 nafarni tashkil etmoqda, asosiy hissa tabiiy fanlar, xorijiy tillar hamda pedagogika fakultetlariga to‘g‘ri keladi.

### 2.4.2. Hisob yilida xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan xalqaro konferensiyalar, seminarlar, ilmiy yoki o‘quv loyihalarda talabalar va o‘qituvchilar ishtirok etishi

Hisobot davrida universitet bo‘yicha jami 297 nafar professor-o‘qituvchilar xalqaro miqyosda o‘tkazilgan konferensiyalarda on-layn yoki off-layn ishtirok etishgan. Kafedralar kesimida qaralganda matematik analiz kafedrasi 5 nafar, ingliz tilshunosligi kafedrasi 40 nafar, tasviriy san’at va MG kafedrasi 21 nafar, pedagogika kafedrasi 4 nafar, gumanitar yo‘nalishlarda chet tili kafedrasi 10 nafar, maktabgacha talim kafedrasi 6 nafar, nemis va fransuz tillari kafedrasi 25 nafar, tabiiy yo‘nalishlarda chet tili kafedrasi 3 nafar, iqtisodiyot kafedrasi 5 nafar, tuproqshunoslik kafedrasi 5 nafar, organik va fizkolloid kimyo kafedrasi 5 nafar.

Ekologiya va geografiya, umumiy va noorganik kimyo, fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport, Buxoro tarixi kafedralardan professor-o‘qituvchilar ishtirok etishmagan.

Hisobot davrida universitet bo‘yicha jami 119 nafar talabalar xalqaro miqyosda o‘tkazilgan konferensiyalarda on-layn yoki off-layn ishtirok etishgan. Kafedralar kesimida qaralganda ingliz tilshunosligi 4 nafar, tasviriy san’at va MG 15 nafar, pedagogika 2 nafar, psixologiya 4 nafar, servis sohasi iqtisodiyoti 5 nafar, o‘zbek tili va adabiyoti 1 nafar, axborot texnologiyalari 1 nafar, turizm va mehmonxona xo‘jaligi 4 nafar, texnologik ta’lim 2 nafar, tarjimashunoslik va lingvodidaktika 10 nafar, ingliz adabiyoti va stilistika 3 nafar, boshlang‘ich ta’lim nazariyasi 1 nafar, gumanitar yo‘nalishlarda chet tili 2 nafar, maktabgacha talim 12 nafar, nemis va fransuz tillari 7 nafar, boshlang‘ich ta’lim metodikasi 22 nafar, tabiiy yo‘nalishlarda chet tili 1 nafar, amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari 3 nafar, iqtisodiyot 5 nafar, rus tili va adabiyoti 7 nafar, organik va fizkolloid kimyo 3 nafar, jahon tarixi 2 nafar, ingliz adabiyotshunosligi 2 nafar, umumiy va noorganik kimyo 1 nafar talabalar xalqaro konferensiya va seminarlarda ishtirok etishgan.

### 2.5. Xorijiy tilda o‘qitiladigan o‘quv kurs(fan)lari soni

2021/2022 o‘quv yilida joriy ma’lumot bo‘yicha tahlil qilinganda, xorijiy tilda o‘qitiladigan o‘quv fanlari soni 40 tani tashkil qilmoqda.

Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasida 16 ta, Iqtisodiyot kafedrasida 12 ta, Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasida 5 ta, Texnologik ta’lim kafedrasida 3 ta,

Psixologiya kafedrasida 2 ta, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasida 1 ta, Jahon tarixi kafedrasida 1 ta o'quv fanlari xorijiy tilda o'qitilmoqda.

**3.2.1. Hisob yilida OTMni bitirgan bitiruvchilar soni.**

2021/2022 o'quv yilida joriy ma'lumot bo'yicha tahlil qilinganda, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari soni 2497 nafar (441 nafar grant, 2056 nafari kontrakt asosida)ni tashkil etadi, ularning 645 nafari (ya'ni, 25,8 foizi) bandligi bo'yicha asosli ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlar mavjud.

**3.2.2. Magistratura bitiruvchilarining ishga joylashganlik darajasi haqida ma'lumot.**

2021/2022 o'quv yilida Buxoro davlat universitetida magistratura mutaxassisligi bo'yicha jami bitiruvchilar soni 248 nafar (52 nafari grant, 196 nafari kontrakt asosida). Ushbu ko'rsatkich bo'yicha tahlili qilinganda, 248 nafar bitiruvchidan 98 nafari ishga joylashgan va bu 40 % ni tashkil etadi.

**3.4.1. Xalqaro olimpiadalarda va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar salmog'i**

2021/2022 o'quv yilida Xalqaro olimpiadalarda va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan talabalar soni 48 nafarga yetdi.

Kafedralar kesimida qaralganda boshlang'ich ta'lim metodikasi 16 nafar, maktabgacha talim 11 nafar, tasviriy san'at va MG 9 nafar, iqtisodiyot 2 nafar, texnologik ta'lim 2 nafar, pedagogika 2 nafar, turizm va mehmonxona xo'jaligi 1 nafar, ingliz adabiyoti va stilistika 1 nafar, boshlang'ich ta'lim nazariyasi 1 nafar, tabiiy yo'nalishlarda chet tili 1 nafar, amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari 1 nafar, differensial tenglamalar 1 nafar talabalar tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan.

**3.4.2. Respublika olimpiadalarida va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom) larga sazovor bo'lgan talabalar soni.**

2021/2022 o'quv yilida Respublika olimpiadalarida va nufuzli tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom) larga sazovor bo'lgan talabalar soni 14 nafarga yetdi.

Kafedralar kesimida qaralganda, matematik analiz 2 nafar, musiqa ta'limi 5 nafar, JMN va U 3 nafar, differensial tenglamalar 1 nafar, o'zbek tilshunosligi 3 nafar talabalar tanlovlarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan va mukofot (diplom)larga sazovor bo'lgan.

**Sport klubiga a'zo bo'lib, tashkil etilgan sport seksiyalarida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchi sport tasnifiga (sportchi razryadlari) ega bo'lgan talabalar**

2021/2022 o'quv yilida Sport klubiga a'zo bo'lib, tashkil etilgan sport seksiyalarida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchi sport tasnifiga (sportchi razryadlari) ega bo'lgan talabalar soni 428 nafarga yetdi.

Kafedralar kesimida qaralganda, JMN kafedrasi va U 395 nafar, Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi 10 nafar, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi 9 nafar, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi 5 nafar, Jahon tarixi kafedrasi 5 nafar, Iqtisodiyot kafedrasi 2 nafar, Texnologik ta'lim kafedrasi 1 nafar, Pedagogika kafedrasi 1 nafar

**2022-yil 1-chorak natijalarining reja va 2021-yilning mos davriga nisbatan qiyosiy ko'rsatkichlari**

| № | Штат | Дунёнинг нуфузли 1000 талигига кирувчи ОТМларда (PhD) даражаси ёки (DSc) дипломига эга бўлган асосий штатдаги профессор-ўқитувчилар* | Дунёнинг нуфузли 1000 талигига кирувчи ОТМларида маърузалар (семинарлар, амалий машғулотлар, тренинглар) ўтказиш | Ҳисоб йилида фан доктори (DSc) илмий даражасини олган профессор-ўқитувчилар | Ҳисоб йилида фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олган профессор-ўқитувчилар | Халқаро кўрсаткичларга кўраОТМи профессор-ўқитувчиларнинг илмий мақолаларига («Web of Science», «Scopus», Google Scolar ёки бошқа халқаро эътироф этилган базаларда мавжуд бўлган журналлар бўйича) иқтибослар (+2022) | | | Халқаро («Web of Science», «Scopus» ва Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги ОАК рўйхатидаги) илмий журналларда чоп этилган илмий мақолалар | | | Хорижий илмий тадқиқот марказлари грантлари ва хорижий илмий фондлари буюртмалари ҳисобига олинган маблағлар, млн. сўм | Соҳалар буюртмалари асосида ўтказилган (илмий, илмий-ижодий)тадқиқотлардан олинган молиявий маблағлар, млн. сўм | Давлат грантлари асосида ўтказилган тадқиқотлардан олинган маблағлар, млн. сўм | Монография |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | Scopus базасига киритилган илмий журналларда чоп этилган мақолалар | Web of Science базасига киритилган илмий журналларда чоп этилган мақолалар | Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги халқаро ОАК рўйхатига киритилган журналларда чоп этилган илмий мақолалар | Республика ОАК журналларида чоп этиладиган мақолалар | Q1 ва Q2 кварталли журналларда* | | | | |
| | | 1.1. | 1.2. | 1.3.1 | 1.3.2 | 1.5. | | | 1.6.1 | 1.6.2 | | 1.7.1 | 1.7.2 | 1.7.3 | 1.9.1 |
| 2022 йил 1-чорак амалда | 1087,5 | 6 | 12 | 0 | 23 | 7200 | 344 | | | 265 | 0 | 214 | 98,5 | 584,5 | 42 |
| 2021 йил 1-чорак натижалари | 904,0 | 6 | 7 | 5 | 16 | 6000 | 267 | | | 214 | 0 | 732 | 125 | 379 | 33 |
| 31.03.2022 да 31.03.2021 га нисбатан % ҳисобида | | 83,1 | 142,5 | 0,0 | 119,5 | 99,8 | 107,1 | | | 102,9 | | 24,3 | 65,5 | 128,2 | 105,8 |
| 2022 йил 1-чорак режа | 1087,5 | 17 | 20 | 10 | 23 | 8563 | 68 | 68 | 137 | 272 | 19 | 883 | 544 | 2855 | 68 |
| 2022 йил 1-чорак режага нисбатан % ҳисобида | | 34,8 | 58,8 | 0,0 | 98,3 | 84,1 | 125,9 | | | 97,3 | 0,0 | 24,2 | 18,1 | 20,5 | 61,4 |
| | | | | | | | SCOPUS, WoS улуши кам | | | | | | | | |

| № | Штат | Ихтиро, фойдали модель, саноат намуналари ва селекция ютуқлари учун олинган патентлар | АКТга оид дастурлар ва электрон маълумотлар базалари учун олинган гувоҳномалар, муаллифлик ҳуқуқи билан ҳимоя қилинадиган турли материаллар | Дарслик | Ўқув қўлланма | Дунёнинг нуфузли 1000 талигига кирувчи ОТМлардан ўқув жараёнига жалб этилган хорижий ўқитувчилар | Хорижий талабалар улуши | Хорижий ОТМлари билан академик алмашинув дастурлари (талабалар томонидан) | Хорижий ОТМлар билан халқаро конференциялар, семинарлар, илмий ёки ўқув лойиҳаларда талабалар ва ўқитувчилар иштироки этиши | Таълим йўналишлари (мутахассисликлари) бўйича хорижий тилда ўқитиладиган фанлар сони | Давлат гранти асосида битирган битирувчиларнинг ишга жойлашганлиги | Давлат гранти асосида битирган магистратура битирувчиларнинг ишга жойлашганлиги | Халқаро олимпиадаларга, нуфузли танловларда совринли ўринларни қўлга киритган ҳамда мукофот (диплом)ларга сазовор бўлган талабалар | Республика олимпиада, нуфузли танловларда совринли ўринларни қўлга киритган ҳамда мукофот (диплом)ларга сазовор бўлган талабалар | Спорт клубига аъзо бўлиб, ташкил этилган спорт секцияларида жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланувчи спорт таснифи (разряд)га эга бўлган талабалар |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1.9.2 | 1.9.3 | 2.2.1 | 2.2.2. | 2.3.1 | 2.3.2 | 2.4.1 | 2.4.2 | 2.5. | 3.2.1 | 3.2.2 | 3.4.1 | 3.4.2 | 4.1. |
| 2022 йил 1-чорак амалда | 1087,5 | 1 | 65 | 14 | 35 | 26 | 281 | 6 | 411 | 40 | 0 | 0 | 48 | 14 | 428 |
| 2021 йил 1-чорак натижалари | 904,0 | 0,5 | 26 | 16 | 43 | 11 | 282 | 4 | 94 | 29 | | | 9 | 34 | 393 |
| 31.03.2022 да 31.03.2021 га нисбатан % ҳисобида | | 166,3 | 207,8 | 72,7 | 67,7 | 196,5 | 82,8 | 124,7 | 363,5 | 114,7 | | | 443,3 | 34,2 | 90,5 |
| 2022 йил 1-чорак режа | 1087,5 | 9 | 75 | 58 | 112 | 34 | 289 | 55 | 544 | 24 | 156 | 21 | 35 | 35 | 409 |
| 2022 йил 1-чорак режага нисбатан % ҳисобида | | 11,0 | 86,8 | 24,2 | 31,3 | 75,9 | 97,2 | 11,0 | 75,6 | 170,2 | | | 139,1 | 39,7 | 104,6 |

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

**1.** “Kafedralarni 2022-yil faoliyatining 1-chorak natijalari tahlili to‘g‘risida”gi ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i Z.S.Nurovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Universitetning 2022-yil 1-chorak faoliyat natijalari yil boshida tasdiqlangan rejaga nisbatan aksariyat indikatorlar bo‘yicha qoniqarsiz ekanligi qayd etilsin.

3. Fakultetlarda reyting ko‘rsatkichlarining batafsil tahlilini amalga oshirish uchun ishchi guruhlar tuzilsin.

4. Ishchi guruh bilan kafedralardagi kuchli va zaif sohalar o‘rganilib, tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

5. Fakultetlar va kafedralarning uzoq va qisqa muddatli rivojlanish strategiyalari reyting indikatorlari asosida ishlab chiqilsin.

6. Kafedralarda belgilangan reja asosida har bir pedagog-xodim faoliyati ta’minlansin va bajarilgan o‘quv-metodik, tarbiyaviy, ilmiy faoliyat natijalarining asoslovchi hujjatlarini universitet **(http://uniwork.buxdu.uz/)** platformasiga muntazam ravishda joylashtirib borishi ta’minlansin **(Mas’ullar: tegishli bo‘lim boshliqlari, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)**

**IV. <u>Marketing va talabalar amaliyoti yo‘nalishi bo‘yicha:</u>**

**5.** Universitet taqsimot komissiyasi tomonidan 2021/2022 o‘quv yili bitiruvchilari (bakalavriat va magistrlari)ni ishga taqsimlash va ishga yuborish yo‘llanmalarini rasmiylashtirish to‘g‘risida

***<u>Ma’ruzachi:</u>*** *Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i S. Xamidov*

**ESHITILDI: S.Hamidov** (Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi boshlig‘i). Universitet bakalavriati yo‘nalishlari va magistraturasi mutaxassisliklari kesimida har bir bitiruvchi to‘g‘risida (ismi sharifi, jinsi, tug‘ilgan yili, doimiy yashash manzili, oilaviy ahvoli, tugatayotgan yo‘nalishi yoki mutaxassisligi, ishga yo‘llanadigan korxona, tashkilot yoki muassasa nomi, shartnoma va h.k.) ma’lumotlar ba’zasi shakllantirilgan. Potensial ish beruvchi yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ba’zasi yaratilib, bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo‘yicha tegishli korxona, tashkilot va muassasalar hamda universitet o‘rtasida yosh mutaxassislarni ishga joylashtirish bo‘yicha uch tomonlama “Yosh mutaxassislarni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish to‘g‘risida”gi shartnomalarning tuzilishi bugungi kunga qadar davom etmoqda.

Viloyatda mavjud vakant o‘rinlarini kengroq yoritish hamda talabalarga bevosita yetkazish maqsadida 2022-yil 15-mart kuni universitetda Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi huzuridagi Bandlik markazi tashkilotchiligа “Karyera kuni-2022” mehnat yarmarkasi o‘tkazildi. Tashkil etilgan mehnat yarmarkasida viloyatimizning turli sohalari bo‘yicha, xususan, xalq ta’limi sohasida 1 261 ta, maktabgacha ta’lim sohasida 696 ta, tibbiyot sohasida 839, sanoat sohasida 1 435 ta, qurilish sohasidan 805 ta, qishloq xo‘jaligi sohasida 2 032 ta va boshqa sohalar bilan birgalikda jami 8 000 dan ziyod bo‘sh ish o‘rinlari qatnashuvchilarga taklif etildi. Yarmarkaga 100 dan ortiq korxona va tashkilotlar jalb qilinib, 3 500 ga yaqin talabalar bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumot olishdi. Ushbu yarmarkada ishtirok etgan “Fizika-matematika” fakultetning bitiruvchi kurs va 3 bosqich talabalaridan 11 nafari hududlar kesimida o‘qituvchi lavozimlarda ishga joylashtirildi. “Tarix va madaniy meros” fakultetining bitiruvchi kurs va 3 bosqich talabalaridan 27 nafar talaba xududlar kesimida o‘qituvchi, mehnat inspeksiyasi xodimi kabi lavozimlarda ishga joylashtirildi.

Yana bir mehnat yarmarkasi joriy yilning 7-aprel kuni Vobkent tumanida tashkil etilib, G‘ijduvon, Peshku, Vobkent hamda Shofirkon tumanlari bo‘yicha bitiruvchilar hamda talabalarni bandligini ta’minlash va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsad qilingan yarmarka doirasida nafaqat bo‘sh ish o‘rinlari balki tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun viloyat tijorat banklari tomonidan turli imtiyozli kreditlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ishtirok etdilar.

Universitetni 2021/2022 o‘quv yili bitiruvchilari (ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar bo‘yicha shahar va tuman hamda viloyatlar kesimida) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Buxoronoma” gazetasi (2022-yil 16-martdagi № 21-soni) da va Buxoro davlat universitetining www.buxdu.uz saytida e’lon qilingan. (Ma’lumotlar ilova qilinadi).

Universitetning 2021/2022 o‘quv yili bitiruvchilari bo‘yicha “Yosh mutaxassisni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish to‘g‘risida” gi 3 tomonlama shartnomalarning rasmiylashtirilishi holati to‘g‘risida:

Universitetni 2021/2022 o‘quv yilida jami 3 461 nafar talaba o‘qishni tamomlamoqda (bakalavriat kunduzgi – 2 971 nafar, magitraturada 490 nafar).

Jumladan:

- bakalavriatda 38 ta ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 2 971 nafar (shundan, 636 nafar davlat grantlari va 2 335 nafar shartnoma asosida),
- magistraturada 31 ta mutaxassisliklar bo‘yicha 490 nafar (shundan, 82 nafar davlat grantlari va 408 nafar shartnoma asosida) yosh mutaxassislar oliygohni bitirish arafasida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1506-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to‘g‘risida” gi Nizom talablaridan kelib chiqqan holda:

a) Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilari bo‘yicha:

636 nafar davlat grant asosida tahsil olgan bitiruvchining 633 nafari bilan 3-tomonlama shartnomalar rasmiylashtirilgan bo‘lib, 3 nafar bitiruvchi bo‘yicha shartnomalar taqdim etilmadi, bu jami bitiruvchilarning 0.2 foizini tashkil etadi. (1-jadvalga qarang).

1-jadvalda tahliliy ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, Mehnat ta'limi (10%), Kimyo (4%), Maktabgacha ta’lim(MT-19) (2%) ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilari bilan yetarlicha ishlar olib borilmaganligi sababli shartnomalarning rasmiylashtirilishi **ahvoli qoniqarsiz**.

b) Magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari bo‘yicha:

82 nafar davlat granti asosida tahsil olayotgan bitiruvchilar tomonidan 3-tomonlama shartnomalar to’liq rasmiylashtirildi.

Magistrlarning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari bo‘yicha ishga taqsimlanish jarayonini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu quyidagi sohalarda tegishlicha taqsimlanmoqda.

82 nafar bitiruvchining 15 nafari (36.3 foizi) oliy ta’limga jalb qilingan bo‘lib, 54 nafari (ya’ni, 65.8 foizi) xalq ta’limi tizimiga, 2 nafari (atigi 2.4 foizi) maktabgacha ta’lim tizimiga, 3 nafari (3.6 foizi) o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida tizimida, 1 nafari (1.2 foizi) davlat boshqaruv organlarida, 2 nafari (2.4 foizi) turli jamoat tashkilotlariga, 5 nafari (ya’ni, 6.0 foizi) servis sohasi va boshqa xususiy sektorga jalb qilingan.

**1-jadval**. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari bo‘yicha shartnomalarning rasmiylashtirilishi holati (06.05.2022 yil holatiga)

| T/R | Fakultet nomi | Yo'nalish nomi | Bitiruvchilar soni | | Olib kelingan shartnomalar soni (fakultetlar kesimida) | Davlat granti | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Davlat granti | To'lov-kontrakt | | Jami | Olib kelinganlar soni | Qoldi | Foizda | Qoldi (fakultetlar kesimida) |
| 1 | Pedagogika | Pedagogika va psixologiya | 11 | 48 | 31 | 11 | 11 | 0 | 0% | 3% |
| | | Mehnat ta'limi | 10 | 34 | | 9 | 9 | 1 | 10% | |
| | | Psixologiya (faoliyat turlari bo‘yicha) | 11 | 46 | | 11 | 11 | 0 | 0% | |
| 2 | Tabiiy fanlar | Kimyo | 27 | 99 | 47 | 26 | 26 | 1 | 4% | 2% |
| | | Geografiya | 11 | 18 | | 11 | 11 | 0 | 0% | |
| | | Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) | 10 | 27 | | 10 | 10 | 0 | 0% | |
| 6 | Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim | Maktabgacha ta’lim(MT-19) | 41 | 192 | 81 | 40 | 40 | 1 | 2% | 1% |
| | | Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish | 41 | 173 | | 41 | 41 | 0 | 0% | |
| 3 | Filologiya | Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili) | 38 | 135 | 109 | 38 | 38 | 0 | 0% | 0% |
| | | Filologiya va tillarni o‘qitish (rus tili) | 11 | 50 | | 11 | 11 | 0 | 0% | |
| | | Ona tili va adabiyoti (Rus tili va adabiyoti o'zga tilli guruhlarda) | 60 | 103 | | 60 | 60 | 0 | 0% | |
| 4 | Magistratura bo'limi | | 82 | 408 | 82 | 82 | 82 | 0 | 0% | 0% |
| 5 | Iqtisodiyot va turizm | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) | 12 | 33 | 53 | 12 | 12 | 0 | 0% | 0% |
| | | Turizm (faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha ) | 10 | 30 | | 11 | 10 | 0 | 0% | |
| | | Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish | 16 | 55 | | 16 | 16 | 0 | 0% | |
| | | Xizmatlar sohasi (faoliyat turlari va yo‘nalishlari bo‘yicha) | 14 | 26 | | 14 | 14 | 0 | 0% | |
| 7 | Tarix va madaniy meros | Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi | 8 | 78 | 43 | 8 | 8 | 0 | 0% | 0% |
| | | Arxeologiya | 4 | 21 | | 4 | 4 | 0 | 0% | |
| | | Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) | 23 | 48 | | 26 | 23 | 0 | 0% | |
| | | Tarix. Buxoro tarixi | 5 | 24 | | 5 | 5 | 0 | 0% | |
| 8 | Xorijiy tillar | Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) | 61 | 151 | 99 | 61 | 61 | 0 | 0% | 0% |
| | | Filologiya va tillarni o’qitish (fransuz tili) | 5 | 24 | | 5 | 5 | 0 | 0% | |
| | | Filologiya va tillarni o’qitish (ingliz tili) | 23 | 102 | | 23 | 23 | 0 | 0% | |
| | | Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili) | 5 | 19 | | 5 | 5 | 0 | 0% | |
| | | Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili)(2019) | 5 | 22 | | 5 | 5 | 0 | 0% | |
| 9 | Axborot | Amaliy matematika va informatika | 10 | 38 | 25 | 10 | 10 | 0 | 0% | 0% |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | texnologiyalari | Kasb ta'limi: informatika va axborot texnologiyalari | 10 | 35 | | 10 | 10 | 0 | 0% | |
| | | Kompyuter ilmlari va dasturlash texnologiyalari(yo'nalishlar bo'yicha) | 5 | 22 | | 5 | 5 | 0 | 0% | |
| 10 | Fizika-matematika | Fizika | 24 | 99 | 49 | 24 | 24 | 0 | 0% | **0%** |
| | | Matematika | 25 | 117 | | 25 | 25 | 0 | 0% | |
| 11 | Jismoniy madaniyat | Jismoniy madaniyat | 18 | 151 | 28 | 18 | 18 | 0 | 0% | **0%** |
| | | Jismoniy madaniyat (xotin-qizlar sporti) | 10 | 45 | | 10 | 10 | 0 | 0% | |
| 12 | San`atshunoslik | Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi | 9 | 43 | 26 | 9 | 9 | 0 | 0% | **0%** |
| | | Musiqa ta'limi | 17 | 87 | | 17 | 17 | 0 | 0% | |
| 13 | Agronomiya va biotexnologiya | Biologiya (turlari bo'yicha) | 25 | 82 | 54 | 28 | 25 | 0 | 0% | **0%** |
| | | Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha) | 11 | 26 | | 11 | 11 | 0 | 0% | |
| | | Tuproqshunoslik | 10 | 32 | | 15 | 10 | 0 | 0% | |
| | **JAMI** | | 718 | 2743 | 727 | 719 | 715 | 3 | 0% | |

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

**1.**Universitet Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i S.K.Hamidovnig axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 23-iyundagi "Respublika oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlarini shakllantirish mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2360-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2005-yil 7-iyuldagi 58, 154-1, 19 va 02/2658-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan "Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida"gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida universitet bakalavriat va magistraturasini 2021/2022 o'quv yilida davlat granti va to'lov- kontrakt asosida bitiruvchilarning iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bo'yicha ishga taqsimlanishi ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Shuningdek, to'lov-kontrakt asosida ta'lim olgan bitiruvchilarning bandligini ta'minlash Nizomning 3-bo'lim, 14-bandi talablari asosida amalga oshirilishi, bunda to'lov-kontrakt asosida ta'lim olgan talabalar o'z ixtiyorlari bilan taqsimot komissiyasida ishtirok etganligi, ularning roziligi asosida komissiya qarori bilan taklif etilayotgan ish joylariga yuborilishi inobatga olinsin.

**3.**Bitiruvchilar bilan ishlash bo'yicha fakultetlarda ichki taqsimot komissiyasi tuzilib, kafedra mudiri hamda bitiruvchilarga biriktirilgan ilmiy rahbarlar mas'uliyatlari oshirilsin.

**4.** Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i S.K.Hamidov xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i U.Fayziyeva zimmasiga yuklatilsin.

---

**V. Tanlovlar.**

**5.1. BuxDU kafedra dotsent, katta o'qituvchi va o'qituvchi lavozimlariga tanlovlar to'g'risida**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida **24** nafar professor o'qituvchilarning ish hujjatlari o'rganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida **12** nafar talabgorlar tanlovdan o'tishga tavsiya etildi. Ularning ro'yxati jadvalda keltirilgan

| **Buxoro davlat universiteti 2021-2022 o'quv yili 9- Kengash<br>Tanlovda ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilar ro'yxati 7. 05. 2022y.** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1** | Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti lavozimiga | Davlatov Suxrob Sayitjonovich | Buxoronoma 5mart №18 2022y | Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi |
| | | Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich | | Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi katta o'qituvchisi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **2** | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyot kafedrasi dotsenti lavozimiga | Azimov Laziz Axrorovich | Buxariskiy vestnik 8-mart №19 2022y | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi |
| | | Axmedov Malik Barakayevich | | Jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi |
| **3** | Pisixologiya kafedrasi dotsenti lavozimiga | Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna | Buxariskiy vestnik 8-mart №19 2022y | Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi |
| | | Fayziyev Zohiddin Hasanboyevich | | Qarshi DU Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi |
| **4** | Nemis va fransuz tillar kafedrasi dotsenti lavozimiga | Kuldashova Navbaxor Bobokulovna | Buxoronoma 8mart №19 2022y | Nemis va fransuz tillari kafedrasi katta o'qituvchisi |
| | | Shodiyeva Iroda Odilovna | | Buxoro MTI Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi |
| **5** | Maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimiga | Rajabova Iroda Hamidovna | Buxoronoma 8mart №19 2022y | Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi |
| | | Ochilova Manzura Orziqulovna | | Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi |
| **6** | Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimiga | To'xtayeva Farida Ismatullayevna | Buxoronoma 8mart №19 2022y | Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi o'qituvchisi |
| | | To`rayeva Xurshida Taxirovna | | Pedagogika instituti "Xorijiy tillar" kafedrasi o'qituvchisi |
| **7** | Rus tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchi lavozimiga | Shermuxamedova Nasiba Almasovna | Buxoronoma 8mart №19 2022y | Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi |
| | | Sobirova Dilfuza Raximovna | | Buxoro MTI akademik litseyi rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi |
| **8** | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga | Hamidov Azimjon Hayotjon o'g'li | Buxoronoma 8mart №19 2022y | O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi |
| | | Po'latova Sevara Maxmud qizi | | O'zbek tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi |
| **9** | Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga | Mamedova Maftuna Muhidinovna | Buxoronoma 5mart №18 2022y | Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi |
| | | Xayrulloyeva Dilnoza Nurmat qizi | | Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi |
| **10** | Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchi lavozimiga | Qodirova Xolida Xayriddin qizi | Buxarskiy vesnik 8mart №19 2022y | Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi |
| | | Hotamova Maftuna Madatovna | | Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedrasida o'qituvchi |
| **11** | Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga | Odinayeва Nigina Furqatovna | Buxoronoma 8-mart №19 2022y | Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi |
| | | Yuldashev Kamol Sharifovich | | Turizm va mehmonxona xo`jaligi kafedrasi o'qituvchisi |
| **12** | Fizika" kafedrasi o'qituvchisi lavozimiga | Muxammadova Dilafruz Axmatovna | Buxarskiy vesnik 8-mart. №19 2022y | Fizika kafedrasi o'qituvchisi |
| | | Fayziyeva Zarifa Xikmatovna | | Fizika kafedrasi o'qituvchisi |

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Muhokama so'ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov yuqorida tanlov natijalarini tasdiqlash uchun ovozga qo'ydi.

Rozilar - 67 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

**1.** Kengash kotibi N. Dilovaning kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
**2.** Yuqorida tanlovdan o‘tgan talabgorlarning 5 yil muddatda kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga saylanganligi ta’kidlansin.
**3.** Mazkur qarorning ijro nazorati universitet kengashi kotibi N.G. Dilova zimmasiga yuklatilsin.

---

**5.2. BuxDUning PI kafedra katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida**
**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida **16** nafar professor o‘qituvchilarning ish hujjatlari o‘rganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida **8** nafar talabgorlar tanlovdan o‘tishga tavsiya etildi. Ularning ro‘yxati jadvalda keltirilgan

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi | Tag‘oyeva Dilnavoz Narziqulovna | Buxarskiy vestnik 8.03.2022 № 19 | Ijtimoiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi. |
| | | Qalandarov Hamza Hamroqul o‘g‘li | | BuxDU Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi |
| **2.** | O‘zbek va rus tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi | Mirxanova Gulandon Rustamovna | Buxarskiy vestnik 2.03.2022 № 17 | O‘zbek va rus tillari kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Qodirova Saodat Abdiraximovna | | BuxDU Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **3.** | Pedagogika, psixologiya va texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi | Shernazarov Zuxriddin Zulfiddin o‘g’li | Buxarskiy vestnik 12.02.2022 № 12 | Pedagogika, psixologiya va texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Axmedova Zarina Jamilovna | | BuxDU Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi |
| **4.** | O‘zbek va rus tillari kafedrasi o‘qituvchisi | Shodiyeva Dilorom Yunusovna | Buxarskiy vestnik 12.02.2022 № 17 | O‘zbek va rus tillari kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Bozorov Zayniddin Ashurovich | | BTI O‘zbek tili va pedagogik psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi |
| **5.** | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi | Tursunov Oqil Amrulloyevich | Buxarskiy vestnik 12.02.2022 № 12 | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Sadriddinova Dilobar Husniddin qizi | | BuxDU Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi |
| **6.** | Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi | Bakayeva Shoira Baxshilloyevna | Buxarskiy vestnik 12.02.2022 № 7 | Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Usmonova Shafoat Murotovna | | 3-son Qorako‘l akademik litsey o‘qituvchisi |
| **7.** | Xorijiy tillar kafedrasi | Ro‘zimurodova Zarifa G’afurovna | Buxarskiy vestnik | Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | o‘qituvchisi | Abdullayeva Gulnora G’aybullayevna | 12.02.2022 № 12 | BuxDU Ingliz tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi |
| **8.** | Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi | Mamatoxunova Yulduzxon Abduraimjon qizi | Buxarskiy vestnik 2.03.2022 № 17 | Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Sohibov Dilshod Beknazarovich | | Buxoro shahar 10-maktab o‘qituvchisi |

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Muhokama so‘ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov yuqorida tanlov natijalarini tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 67 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

**1.** Kengash kotibi N. Dilovaning BuxDU ning Pedagogika instituti kafedra katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
**2.** Yuqorida tanlovdan o‘tgan talabgorlarning 5 yil muddatda kafedra professori, dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga saylanganligi ta’kidlansin.
**3.** Mazkur qarorning ijro nazorati universitet kengashi kotibi N.G. Dilova va BuxDU ning Pedagogika instituti kengash kotibi F. Nurova zimmasiga yuklatilsin.

---

## VI. Turli masalalar.

**6.1. Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: R.G‘.Jumayev** (O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i) Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida quyidagi axborotni berdi. Universitetning Ilmiy Kengashida quyidagi professor o‘qituvchilarning o‘quv qo‘llanma va darsliklarini tasdiqlab berishingizni so‘rayman.

| т/р | Mualliflarning F.I.Sh | Ixtisoslik shifri va nomi | Adabiyot nomi | Adabiyot turi | Kafedra |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | A.J. Abdullayev, Z.A. Qayumova, M.A. Baqoyeva va Sh.Z. Igamova | 5230100-Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar bo'yicha | Деньги и банк | Darslik | Iqtisodiyot |
| 2 | A.Sh. Inoyatov va Ya.Z. Fayziyev | 5112000-Jismoniy madaniyat | Гимнастика теория и преподавания | Darslik | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti |
| 3 | M.A. Tursunov, Z.A. Sulaymonova, Sh.B. Raxmatov, H.S. Fozilov va A.T. Jo'rayev | 5140500-Kimyo | Neft va gaz kimyosi | Darslik | Organik va fizkolloid kimyo |
| 4 | F.M. Nuritdinova, H.T. Avezov va D.A. Xazratova | 5140500-Kimyo | Биоорганическая химия | Darslik | Organik va fizkolloid kimyo |
| 5 | G.Toirova | 5120101-Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili | O'zbek tilining sohada qo'llanishi | Darslik | O'zbek tilshunosligi |
| 6 | H.Yu. Salomova | Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun | Sotsiologiya | Darslik | Islom tarixi va manbashunosligi, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | falsafa |
| 7 | F.M. Nuritdinova, Z.Q. Qodirova va B.Sh. Ganiyev | 5140500-Kimyo | Химия нефти и газа | Darslik | Organik va fizkolloid kimyo |
| 8 | N.S. Turdiyeva | 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport ishlari | Umumiy pedagogika | Darslik | Boshlang'ich ta'lim nazariyasi |
| 9 | M.M. To'rayev | 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport ishlari | Теория и методика физический культуры | Darslik | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti |
| 10 | S.Q. Qahhorov va H.O. Jo'rayev | 3510606-Elektromontajchi-sxemachi va 3510607-Elektrik | Muqobil energiya manbalari | Darslik | Fizika |
| 11 | O. Adizova va M.H. Tairova | 5111400-Xorijiy til va adabiyot (fransuz tili), 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz tili) | Adabiyotshunoslik | Darslik | Nemis va fransuz tillari |
| 12 | S.O. Saidov | 5140200-Fizika | Лазерная физика | Darslik | Fizika |
| 13 | S.O. Saidov | 5140200-Fizika | Lazerlar fizikasi | Darslik | Fizika |
| 14 | T.H. Rasulov va U.U. Umarova | 5130100-Matematika | Diskret matematika va matematik mantiq | Darslik | Matematik analiz |
| 15 | D.K. Mamatov | 60210500-Rangtasvir (dastgohli) | Kompyuter grafikasi | O'quv qo'llanma | Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi |
| 16 | X.X. Umurova | Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili, fransuz, nemis), tarjima nazariyasi va amaliyoti | Xorijiy til (ikkinchi chet tili) English | O'quv qo'llanma | Ingliz tilshunosligi |
| 17 | Yu.A. Po'lotova | 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport ishlari | Ona tili o'qitish metodikasi (sinfda o'qitish metodikasi) | O'quv qo'llanma | Boshlang'ich ta'lim metodikasi |
| 18 | M.F. Norova | 5111600-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi | Ijtimoiy ishda tadqiqot metodlari | O'quv qo'llanma | Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa |
| 19 | Q.F. Abdullayev | 5111100-Musiqa ta'limi | Umumiy pedagogika | O'quv qo'llanma | Pedagogika |
| 20 | J.Sh. Hayitov | 60220300-Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) | Turkistonda yangi ekin navlarining tarqalishi va dehqonchilik madaniyatidagi o'zgarishlar tarixi | O'quv qo'llanma | Jahon tarixi |
| 21 | R.X. Jumayev va S.R. Ismatova | 5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport ishlari | Ona tili o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar | O'quv qo'llanma | Boshlang'ich ta'lim metodikasi |
| 22 | F.I. Qo'ziyeva | 61010300-Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) | Jismoniy tarbiya va olimpiya harakati tarixi | O'quv qo'llanma | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti |
| 23 | S.K. Fayziyeva | 5610300-Turizm, 5610200-Mexmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish | Restoranniy biznes | O'quv qo'llanma | Turizm va mexmonxona xo'jaligi |
| 24 | Q.Q. Qobilov | 5112000-Jismoniy madaniyat | Suzish va uni o'qitish metodikasi | O'quv qo'llanma | Jismoniy madaniyat nazariyasi |
| 25 | I.I. Raxmatov va N. Razzoqov | 5140200-Fizika | Quyosh fotoelektrik elementlarini o'rganish | O'quv qo'llanma | Fizika |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 26 | M.Azimova | 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi | Tasviriy san'at tarixi | O'quv qo'llanma | Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi |
| 27 | B.T. Jurayev | 5110900-Pedagogika va psixologiya | Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi | O'quv qo'llanma | Pedagogika |
| 28 | O.G. Flippova va Q.F. Abdullayev | 5111800-Maktabgacha ta'lim | Теория и технологии развитие речи детей | O'quv qo'llanma | Pedagogika |
| 29 | D.N. Xayrullayeva va O.P. Boboyev | Maktab o'quvchilari uchun | Ixtisoslashtirilgan maktablarning 1-sinf o'quvchilari uchun matematika daftari | O'quv qo'llanma | Boshlang'ich ta'lim metodikasi |
| 30 | L.X. Alimova | 5140100-Biologiya | Yosh fiziologiya va gigiyena | O'quv qo'llanma | Biologiya |
| 31 | A.J. Abdullayev, Z.A. Qayumova, M.A. Baqoyeva va Sh.Z. Igamova | 5230100-Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar bo'yicha | Pul va banklar | O'quv qo'llanma | Iqtisodiyot |
| 32 | M.S. Ashurova | Boshlang'ich sinf o'quvchilari | Umumiy pedagogika (pedagogika tarixi) | O'quv qo'llanma | Boshlang'ich ta'lim metodikasi |
| 33 | M.O. Ochilova va N.A. Raximova | 5110900-Pedagogika va psixologiya | Oila pedagogikasi | O'quv qo'llanma | Pedagogika |
| 34 | Z.M. Anvarova, I.E. Mirzoyeva va Z.Abulova | 60530400-Geografiya | Umumiy tabiiy geografiya (tayanch tushuncha va atamalarning o'zbekcha-inglizcha izohli lug'ati) | Lug'at | Ekologiya va geografiya |
| 35 | Sh.Sh. Olimov, Q.F. Abdullayev va B.T. Jo'rayev | 5110900-Pedagogika va psixologiya | Pedagogika nazariyasi va tarixi | Lug'at | pedagogika |

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so‘ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 67 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

Nomlari keltirilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar vazirlik grifini olish uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi oliy va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etish uchun bir ovozdan tasdiqlanishini inobatga olib,

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i R.G‘.Jumayevning universitet pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mualliflari jadvalda keltirilgan professor o‘qituvchilarning o‘quv qo‘llanmalari va darsliklari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi oliy va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etilsin.
3. Mazkur qaror ijro nazorati O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i R.G‘.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

**6.2. Universitetda ta'lim yo'nalishlari va fakultetlar bo'yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyasini ishlab va tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i) kengash a'zolariga Universitet rahbariyati tomonidan ta'lim yo'nalishlari va fakultetlar bo'yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish topshirig'i berilganligini, ushbu qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyalar barcha ma'sullar tomonidan taqdim etilib, o'rganib chiqilganligi haqida axborot berdi.

Shundan so'ng, barcha ma'sullar o'z yo'nlishlari bo'yicha ishlab chiqilgan qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyalari haqida ma'lumot berishdi.

Taqdimotlar so'nggida kengash raisi O.X. xamidov va kengash a'zolari ushbu qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyalar haqidagi o'z taklif mulohazalarini va tavsiyalarini berishdi. Ishlab chiqilgan qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyalarni qo'llab-quvvatlash taklifi berildi.

Muhokama so'ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov Universitetda ta'lim yo'nalishlari va fakultetlar bo'yicha ishlab chiqilgan qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyalarini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi.

Rozilar - 67 nafar
Qarshilar - yo'q
Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i R.G'.Jumayevning Universitetda ta'lim yo'nalishlari va fakultetlar bo'yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyasini ishlab va tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universitetda ta'lim yo'nalishlari va fakultetlar bo'yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyalari kengash a'zolarining tavsiya va takliflarini e'tiborga olgan holda tasdiqlansin.
3. Barcha ma'sullarga: ta'lim yo'nalishlari va fakultetlar bo'yicha qisqa va uzoq muddatli maqsadli rivojlantirish strategiyasi asosida o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqilsin hamda tegishli vazifalar ijrosi ta'minlansin.
4. Mazkur qaror ijro nazorati O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**6.3. O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) G.I. Toirova rahbarligida tayyorlangan "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish atamalari elektron izohli lug'ati hamda xalqaro standartlarni davlat tiliga moslashtirish, tarjima qilish bo'yicha integratsion platformasi yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tematik loyihalar e'loni uchun tavsiya etish to'g'risida.**

**ESHITILDI: G.T. Zaripov** (Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i) – kengash a'zolariga O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) G.I.Toirova rahbarligida tayyorlangan "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish atamalari elektron izohli lug'ati hamda xalqaro standartlarni davlat tiliga moslashtirish, tarjima qilish bo'yicha integratsion platformasi yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha to'g'risida ma'lumot berdi.

So'zga chiqdilar: D.Z. Rajabov (Filoologiya fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori (DSc), O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) G.I.Toirova rahbarligida tayyorlangan "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish atamalari elektron izohli lug'ati hamda xalqaro standartlarni davlat tiliga moslashtirish, tarjima qilish bo'yicha integratsion platformasi

yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tematik loyihalar e’loni uchun tavsiya etish to‘g‘risidagi taklifni qo‘llab-quvvatladi.

Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘ining axboroti va so‘zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib,

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

**1** Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Zaripovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc) G.I.Toirova rahbarligida tayyorlangan “Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish atamalari elektron izohli lug‘ati hamda xalqaro standartlarni davlat tiliga moslashtirish, tarjima qilish bo‘yicha integratsion platformasi yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida tematik loyihalar e’loni uchun tavsiya etilsin.

**3.** Ushbu qarorning ijrosi nazoratini o‘z zimmamga qoldiraman.

---

**6.4. Kafedra professor-o’qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to’g’risida.**

**6.6.1.** Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Mehrinigor Axmedovaning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.2.** Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Sanjar Azimovning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.3.** Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Abduhamid Nurullayevning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.4.** Ingliz adabiyoti vastilistika kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Nozim Ataboyevning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

**6.6.5.** Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Fayziyev Yaxshi Ziyoyevichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g‘risida.

---

**6.5. Buxoro davlat universitetida Buxoro tarixi kafedrasi huzuridagi “Tarixiy madaniy merosni o’rganish, hujjatlashtirish va saqlash” mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi** to‘g‘risidagi nizomi**ni tasdiqlash to‘g‘risida**

**ESHITILDI: F.Temirov (**Buxoro tarixi kafedrasi mudiri**)** kengash a’zolariga Buxoro tarixi kafedrasi huzuridagi “Tarixiy madaniy merosni o’rganish, hujjatlashtirish va saqlash” mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi **to‘g‘risidagi nizom loyihasi haqida ma’lumot berdi.**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-dekabrdagi PF 5847-sonli “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarori, 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-3365-son “Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi 133-sonli “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror ta’minlash maqsadida Buxoro tarixi kafedrasi huzuridagi “Tarixiy madaniy merosni o’rganish, hujjatlashtirish va saqlash” mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi (keyingi

o‘rinlarda “Markaz” deb yuritiladi) to‘g‘risidagi Nizomi (keyingi o‘rinlarda “Nizom” deb yuritiladi) ishlab chiqildi.

Ushbu Markaz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyot tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta’minlash borasidagi hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyruqlari hamda universitet rektori buyrug‘i asosida faoliyat yuritadi. Markazning asosiy vazifalariga Respublika Innovatsion rivojlanish Vazirligi fundamental, amaliy, innovatsion tadqiqotlari doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish; Buxoro davlat universiteti talaba, tadqiqotchi va professor-o’qituvchilarida sohaga oid ko’nikmalarni shakllantirish va malakani oshirish maqsadida yetakchi mahalliy, xorijiy va xalqaro tashkilotlar va ekspertlarini jalb etish; Madaniy meros ob’ektlarini o’rganish, xujjatlashtirish va saqlab qolish bilan bog’liq barcha turdagi ilmiy-amaliy ishlarni shartnoma asosida amalga oshirish; Tarmoq korxonalari muammolari bazasini shakllantirish va Markaz ilmiy-tadqiqot faoliyatini tarmoq korxonalari muammolari yechimiga yo’naltirish;Fundamental, amaliy, innovatsion, tijoratlashtirish hamda startap loyihalarni ishlab chiqish hamda tanlovlarga taqdim etish; Tayyorlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini muhokama qilish hamda ularni nashr etishga tavsiya etish, tadqiqot natijalarini ta’lim amaliyotiga qo‘llashda ishtirok etish. Yuqori malakaga ega bo‘lgan mahalliy hamda xalqaro ekspert- mutaxassislarni jalb etgan holda Buxoro davlat universiteti professor-o‘qituvchilarining dissertatsion tadqiqotlari bo‘yicha ilmiy-metodik konsultatsiyalarni amalga oshirish. Xorijiy hamkorlar hamda xalqaro tashkilot va ekspertlari bilan birga tadqiqotlar olib borish. Mintaqa hududidagi tarixiy meros ob’ektlarini pasportini shakllantirish; Elektron va har qanday turdagi sohaga oid o‘quv adabiyotlar, qo’llanmalar va uslubiy qo’llanmalarini ishlab chiqish hamda ekspertizadan o‘tkazish. Xorijiy (xalqaro) hamkorlar ishtirokida zamonaviy o‘quv adabiyotlari (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-metodik adabiyotlar, ishlanmalar)ni yaratishda ishtirok etish. Xorijiy ta’lim muassasalari hamkorligida bakalavr hamda magistratura talabalari ishtirokida xalqaro tanlovlar hamda olimpiadalar tashkil etish. Markaz ilmiy faoliyati natijalarini monetizatsiya qilish orqali mablag’ toppish faoliyatini yo’lga qo’yishdan iborat.

Hurmatli kengash raisi va a’zolari Sizlardan ushbu Buxoro tarixi kafedrasi huzuridagi “Tarixiy madaniy merosni o’rganish, hujjatlashtirish va saqlash” mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlab berishingizni so‘rayman.

Ushbu masala bo‘yicha Kengash a’zolarining fikr-mulohazalari eshitildi va tasdiqlash uchun tavsiya berildi.
Kengash raisi mazkur masalani kengash a’zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab – quvvatladilar.
Qarshilar va betaraflar bo‘lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

**1.** O’quv ishlari bo’yicha prorektor R.G’.Jumayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Buxoro tarixi kafedrasi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda “Madaniy merosni o’rganish, hujjatlashtirish va saqlash” mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilsin.

**3.** Buxoro tarixi kafedrasi huzuridagi “Madaniy merosni o’rganish, hujjatlashtirish va saqlash” mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi Nizomi 1-ilovaga muvofiq, tarmoq korxonalari muammolarini ilmiy yechishga yo’naltirilgan 3 yillik dasturi 2-ilovaga muvofiq, ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan ko’rsatiladigan xizmat turlari hamda narxlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**4.** Buxoro tarixi kafedrasi mudiriga kafedra huzuridagi “Madaniy merosni o’rganish, hujjatlashtirish va saqlash” mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi orqali o‘z-o‘ziga mablag‘ topish faoliyatini samarali tashkil etish, markaz faoliyatini takomillashtirish orqali fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, markaz orqali fundamental, amaliy, innovatsion, tijoratlashtirish va startap loyihalarni shakllantirish hamda turli tanlovlarga taqdim etish, ilmiy-tadqiqot markazi faoliyati yuzasidan yilida 2-marta (6 oylik va yillik faoliyat natijalari bo’yicha) universitet kengashiga hisobot berish vazifasi yuklatilsin.

**5.** Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limiga ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, fundamental, amaliy, innovatsion, tijoratlashtirish va startap loyihalarni tayyorlash hamda tanlovlarga taqdim etish tartibi bo'yicha muntazam ravishda seminar-treninglar o'tkazish vazifasi yuklatilsin.

**6.** Ushbu qarorning ijro nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

---

**6.6. Qo'shma ta'lim dasturlarida mutaxassislik fanlaridan dars o'tadigan o'qituvchilarga (til sertifikati kamida V2) ustama berish to'g'risida**

**ESHITILDI: O.H. Raximov** (Qo'shma ta'lim dastur bo'limi boshlig'i) kengash a'zolariga Qo'shma ta'lim dasturlarida mutaxassislik fanlaridan dars o'tadigan o'qituvchilarga (til sertifikati kamida V2) ustama berish to'g'risida axborot berdi.

Bugungi kunda OTM faoliyatini tubdan o'zgartirish, xorij tajribasi integratsiyalashuvi asosida ta'lim sifatini yanada oshirish, zamonaviy talablardan kelib chiqib, ta'lim oluvchilar va professor o'qituvchilarga imkoniyatlar yaratish, o'qituvchi bilimini qadrlash maqsadida Qo'shma ta'lim dasturlarida mutaxassislik fanlaridan dars o'tadigan o'qituvchilarga (til sertifikati kamida V2) ustama berish haqidagi taklifni bildirdi.

Ushbu Buxoro davlat universiteti Xorijiy OTMlar bilan hamkorlikdagi qo'shma ta'lim dasturlari professor-o'qituvchilariga qo'shimcha oylik-maosh to'lash масаласи bo'yicha кengash a'zolarining fikr-mulohazalari eshitildi va o'z munosabatlarini bildirib ovoz berishlari so'raldi.

Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab – quvvatladilar.
Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

**1.** Qo'shma ta'lim dastur bo'limi boshlig'i O.H. Raximoвнинг Qo'shma ta'lim dasturlarida mutaxassislik fanlaridan dars o'tadigan o'qituvchilarga (til sertifikati kamida V2) ustama berish to'g'risidaги ахбороти маълумот учун qabul qilinsin.
**2.** Qo'shma ta'lim dasturlarida mutaxasisslik fanlarini (ta'lim tiliga mos ravishda) ingliz yoki rus tilida o'tayotgan amaldagi til sertifikatiga ega bo'lgan (kamida B2) professor-o'qituvchilarga har oylik-ish haqiga qo'shimcha 50 foiz to'lab borish tartibi joriy qilinsin.
**3.** Ushbu qaror ijro nazorati Qo'shma ta'lim dastur bo'limi boshlig'i O.H. Raximov va Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'. Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

---

**6.7. Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 11-2-19 guruh talabasi Hikmatova Sevaraning oilaviy sharoitini hisobga olib, yakuniy nazoratni muddatdan oldin topshirishga ruxsat berish to'g'risida**

**ESHITILDI: R.G'. Jumayev** (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 11-2chi-19 guruh talabasi Hikmatova Sevara Shavkat qizining oilaviy sharoiti sababli horijga ketishini hisobga olib, yakuniy nazoratni muddatdan oldin topshirishga ruxsat berish to'g'risida axborot berdi.

S.Sh. Hikmatova taqdim etgan hujjatlar uning arizasi qondirilishi uchun asos bo'lishini bildirdi va kengash raisi va a'zolaridan Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 11-2chi-19 guruh talabasi Hikmatova Sevaraning oilaviy sharoiti sababli horijga ketishini hisobga olib, iyun oyidagi darslarni mustaqil o'zlashtirib, yakuniy nazoratni muddatdan oldin topshirishga ruxsat so'rab yozgan arizasi va asoslovchi hujjatlarini inobatga olib, ushbu taklif uchun o'z munosabatingizni bildirishingizni so'rayman.

Ushbu masala bo'yicha Kengash a'zolarining fikr-mulohazalari eshitildi va o'z munosabatlarini bildirib ovoz berishlari so'raldi.
Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.

Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab – quvvatladilar.
Qarshilar va betaraflar bo‘lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayevning Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi 11-2-19 guruh talabasi Hikmatova Sevaraning oilaviy sharoitini hisobga olib, yakuniy nazoratni muddatdan oldin topshirishga ruxsat berish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi 11-2-19 guruh talabasi Hikmatova Sevaraning oilaviy sharoitini hisobga olib, yakuniy nazoratni muddatdan oldin topshirishga ruxsat so‘rab yozgan arizasi qondirilsin.
3. Ushbu qaror ijro nazorati Xorijiy tillar fakulteti dekani N.B. Atabayev va ma’sul kafedra mudirlari zimmasiga yuklatilsin.

---

**6.8. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 7-apreldagi 87-02-245- XFU-sonli xatini ijrosini ta’minlash hamda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini barqarorlashtirish to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-noyabrdagi 506-sonli buyrug‘ini inobatga olib BuxDUning “Odob-axloq kodeksi”ga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritishni Kengash muhokomasiga tavsiya etish haqida**

**ESHITILDI: A.A. Amonov: (**Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor**)** – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 7-apreldagi 87-02-245- XFU-sonli xatini ijrosini ta’minlash maqsadida “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini barqarorlashtirish to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-noyabrdagi 506-sonli buyrug‘ini inobatga olib BuxDU “Odob-axloq kodeksi”ning 6-bob 21-moddasiga quyidagi tartibda qo‘shimchalar kiritishni taklif qilaman:

- universitetning nufuziga, shu jumladan zo‘ravonlik va vandalizim holatlarini suratga olish va keyinchalik ularni atrofdagilarga namoish etish yo‘li bilan zarar yetkazish;
- yoshlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy xislatlarni buzuvchi, zo‘ravonlik, shavqatsizlik va pornografik, shuningdek reksion-sektant, soxta diniy mafkurani targ‘ib qiluvchi, atrofdagilarni salbiy harakatlarga undovchi materiallardan iborat bo‘lgan, ko‘rgazma fon sifatida xizmat qiluvchi rasmlar, audio-videoyozuvlar, chizma suratli tasvirlar, ovozli videoroliklarni namoyish etish, tarqatish va qo‘llash qat’iy ta’qiqlanadi.
- mazkur qoyidalarni buzgan talabalarga nisbatan universitetning ichki mehnat tartib qoidalariga muvofiq choralar ko‘riladi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolarining fikr mulohazalari eshitildi va

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

**1.** Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.A. Amonovning Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 7-apreldagi 87-02-245- XFU-sonli xatini ijrosini ta’minlash hamda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish ijtimoiy-ma’naviy muhit holatini barqarorlashtirish to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-noyabrdagi 506-sonli buyrug‘ini inobatga olib BuxDUning “Odob-axloq kodeksi”ga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritishni Kengash muhokomasiga tavsiya etish haqidаги ахбороти маълумот учун қабул қилинсин.
**2.** BuxDUning “Odob-axloq kodeksi”ga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritiлгани инобатга олинсин ҳамда университет ишчи-ходимлари, прфессор ўқитувчилар, талабаларга етказилсин.
**3.** Ушбу қарор ижро назорати Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.A. Amonov зиммасига юклатилсин.

---

**6.9. Chet tillar (ingliz, fransuz, nemis tili) fanlari bo'yicha malakaviy imtihon dasturi va baholash mezonini tasdiqlash to'g'risida**

**ESHITILDI: G.T. Zaripov** (Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i) kengash a’zolariga Chet tillar (ingliz, fransuz, nemis tili) fanlari bo'yicha malakaviy imtihon dasturi va baholash mezonini tasdiqlash to'g'risida axborot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining 2022-yil 1-apreldagi 01-08/782-sonli xatiga asosan universitetda “Chet tillar” (ingliz, fransuz, nemis tili) fanlari bo‘yicha malakaviy imtihonlarni qabul qilishga ruxsat berildi. Malakaviy imtihonlarni yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish maqsadida “Chet tillar” (ingliz, fransuz, nemis tili) fanlari bo‘yicha dastur va baholash mezoni ishlab chiqildi. Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasida chet tilining ijtimoiy ahamiyatiga e’tibor ortayotganligi, xorijiy tilni mukammal biluvchi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi, ilmiy soxa mutaxassislariga sohaga yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish barobarida ularni “Xorijiy tilni bilishning umumevropa kompetensiyasi: o‘rganish, o‘rgatish, baholash”, ya’ni CEFR talablari asosida tayyorlash maqsadida ishlab chiqilgan bo‘lib, dastur mazmuni nutq faoliyati turlarini o‘rganishi darajalarini hamda nutq va til materiallarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Dasturda quyidagi vazifalar ilgari suriladi:

Talabgorlarning nutq (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish;

ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog‘lik mavzular yuzasidan og‘zaki va yozma bayon etish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag‘rikenglik va millatlararo hamdo‘stlik hislarini singdirish;

ilmiy va kasbiy faoliyatda ko‘llaniladigan termin va atamalarni bilish;

talabgorlarning ilmiy va sohaviy yo‘nalishlaridan kelib chiqib, mustaqil ish topshiriqlarini to‘g‘ri va aniq bajarishini tashkil etish.

Dastur talabgorlarning o‘rganayotgan chet tilidan olgan bilimlari asosida og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishni, ulardan kelgusi ilmiy va kasbiy faoliyatlarida to‘la foydalanishni hamda kommunikativ, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, kasbiy, umummadaniy kompetentligini integrallashgan yondashuv asosida rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolarining fikr mulohazalari eshitildi va

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

1. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Zaripovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Chet tili (ingliz, fransuz, nemis tili) fanlari bo‘yicha malakaviy imtihonlarni tashkil etish bo‘yicha tegishli me’yoriy hujjatlar Nizom talablari asosida tayyorlansin. (Mas’ullar: IT, I va IPKTB boshlig‘i, komissiya raisi Z.I. Rasulov)
3. Ikki kun muddatda chet tili (ingliz, fransuz, nemis tili) fanlari bo‘yicha malakaviy imtihonlarni o‘tkazilishi yuzasidan universitet veb sayti e’lon berilsin (Mas’ul: IT, I va IPKTB boshlig‘i G.T. Zaripov)
4. Talabgorlarning hujjatlarini elektron shaklda Nizom talablariga rioya qilgan holda qabul jarayonlari tashkil etilsin (Mas’ul: IT, I va IPKTB boshlig‘i G.T. Zaripov)
5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T. Jo‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**6.10. Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida.**

**6.10.1. Buxoro davlat universiteti “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi 2 kurs tayanch doktoranti Toshev Murodjon Xalilovichning (PhD) doktorlik**

**disseratatsiya mavzusi “Maktab o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shaxmatni o‘qitish jarayonida rivojlantirish (kompyuter texnologiyalari asosida) (13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi ) ixtisosligini 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligiga o‘zgartirish to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (BuxDU kengashi kotibi) – kengash a’zolariga BuxDU “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi 2 kurs tayanch doktoranti M.X.Toshev ikki yildan beri “Maktab o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shaxmatni o‘qitish jarayonida rivojlantirish (kompyuter texnologiyalari asosida) (13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi ) ixtisosligi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotganligini, olingan ma’lumotlar tahlili va qayd etilgan natijalar 13.00.01-“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligiga mos kelishini ta’kidladi.

Shu sababli doktorant M.X. Toshev tomonidan “Maktab o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shaxmatni o‘qitish jarayonida rivojlantirish (Kompyuter texnologiyalari asosida)” 13.00.04- “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlar nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha olingan mavzusini 13.00.01-“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligiga o‘zgartirish taklifi tushganligi haqida axborot berdi. Bu haqda ilmiy-texnik kengashning 2022-yil 19-apreldagi navbatdan tashqari yig‘ilishi ko‘chirmasi borligini bildirdi.

Kengash raisi yuqorida so‘ralgan BuxDU “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi 2 kurs tayanch doktoranti Toshev Murodjon Xalilovichning “Maktab o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shaxmatni o‘qitish jarayonida rivojlantirish (kompyuter texnologiyalari asosida) (13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi ) ixtisosligi bo‘yicha olingan falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusini 13.00.01-“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifini ovozga qo‘ydi.

Universitet kengashi a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatladilar.

Qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi 2 kurs tayanch doktoranti Toshev Murodjon Xalilovichning “Maktab o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini shaxmatni o‘qitish jarayonida rivojlantirish (kompyuter texnologiyalari asosida) olingan falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi 13.00.01-“Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligiga o‘zgartirilsin.

---

**6.10.2. Buxoro davlat universiteti “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevichning “Xokkeychilar harakat tayyorgarligini nazorat qilish va baholashda 3 D texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari” pedagogika fanlari doktori (DSc) disseratatsiya mavzusini “Ta’lim tizimida yengil atletika bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishning ilmiy – pedagogik asoslari (umumta’lim maktablari misolida)” mavzusiga o‘zgartirish to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (BuxDU kengashi kotibi) – kengash a’zolariga BuxDU “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevichning “Xokkeychilar harakat tayyorgarligini nazorat qilish va baholashda 3 D texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari” pedagogika fanlari doktori (DSc) disseratatsiya mavzusini “Ta’lim tizimida yengil atletika bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishning ilmiy – pedagogik asoslari (umumta’lim maktablari misolida)” ilmiy ish mavzusiga o‘zgartirish taklifi tushganligi haqida axborot berdi. Bu haqda ilmiy-texnik kengashning 2022-yil 19-apreldagi navbatdan tashqari yig‘ilishi ko‘chirmasi borligini bildirdi.

Kengash raisi yuqorida so‘ralgan BuxDU “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevichning “Xokkeychilar harakat tayyorgarligini nazorat qilish va baholashda 3 D texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari” pedagogika fanlari doktori (DSc) disseratatsiya mavzusini “Ta’lim tizimida yengil atletika bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishning ilmiy – pedagogik asoslari (umumta’lim maktablari misolida)” ilmiy ish mavzusiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifini ovozga qo‘ydi.

Universitet kengashi a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatladilar.

Qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevichning “Xokkeychilar harakat tayyorgarligini nazorat qilish va baholashda 3 D texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari” pedagogika fanlari doktori (DSc) disseratatsiya mavzusini “Ta’lim tizimida yengil atletika bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishning ilmiy – pedagogik asoslari (umumta’lim maktablari misolida)” mavzusiga o‘zgartirilsin.

---

**6.11. “Innovatsion g’oyalar yetakchisi” ko’krak nishoni tanloviga nomzodlarni tavsiya etish to’g’risida.**

**ESHITILDI:A.T. Jo’rayev** (Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor) – kengash a’zolariga O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-oktyabrdagi “Innovatsion g’oyalar yetakchisi” ko’krak nishonini ta’sis etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 786-sonli qarorida har yili innovatsion g’oya va texnologiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga tatbiq etishga munosib hissa qo’shgan yosh olimlar va talabalar hamda tashabbuskor fuqarolar “Innovatsion g’oyalar yetakchisi” ko’krak nishoni bilan taqdirlanishi belgilanganligi to’g’risida ma’lumot berdi. Shu asosda, 2022-yil 26-aprelda universitet rektorining 211-U-sonli buyrug’i qabul qilinganligi va buyruq bilan “Innovatsion g’oyalar yetakchisi” ko’krak nishoniga talabgorlarning hujjatlarini ko’rib chiqish uchun ishchi komissiya tuzilganligini ta’kidladi. Ishchi komissiyaning 2022-yil 6-maydagi yig’ilishiga nomzodlarning hujjatlari ko’rib chiqilganligini hamda yig’ilish bayonnomasi bilan quyidagi nomzodlarning hujjatlari Nizom talablari asosida rasmiylashtirilganligi hamda tanlov talablariga to’la mos kelishi ma’lum qilindi:

- Jo’rayev Husniddin Oltinboyevich – Fizika-matematika fakulteti dekani, p.f.d. (DSc), dotsent., “Fizika fanini rivojlantirishga qaratilgan elektron platforma yaratish” loyihasi muallifi;
- Nurutdinova Feruza Muidinovna – Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)., “Apis Mellifera jonsiz asalaridan biopolimer xitozan va metall hosilali sintezini laboratoriya texnologiyasini ishlab chiqish” loyihasi muallifi;
- Qodirova Nasima Saidburxonovna – O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi o’qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)., “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo’yicha elektron platforma loyihasi muallifi;
- Xayrullayeva Nilufarbegim Nematillo qizi – Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi doktoranti., “Buxoro viloyati ekoturistik destinatsiyalaridan foydalanishning innovatsion dasturi” loyihasi muallifi;
- Xayrulloyeva Gulasal Fayzullo qizi – Universitet lingvistika: o’zbek tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti., “Hozirgi o’zbek tili. Morfologiya elektron qo’llanmasi uchun EHM dasturi” loyihasi muallifi.

Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor A.T. Jo’rayev yuqorida keltirilgan nomzodlarning hujjatlari Nizom talablari asosida rasmiylashtirilganligi hamda tanlov talablariga to’la mos kelishini inobatga olgan holda, “Innovatsion g’oyalar yetakchisi” ko’krak nishoni tanloviga tavsiya etish taklifini ovozga qo’ydi

Muhokamadagi masala bo'yicha universitet kengashi

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Innovatsion g'oyalar yetakchisi" ko'krak nishoni tanloviga hujjat topshirgan quyidagi talabgorlar tanlovning keyingi bosqichiga tavsiya etilsin:

- Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich – Fizika-matematika fakulteti dekani, p.f.d. (DSc), dotsent;
- Nurutdinova Feruza Muidinovna – Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD);
- Qodirova Nasima Saidburxonovna – O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD);
- Xayrullayeva Nilufarbegim Nematillo qizi – Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi doktoranti;
- Xayrulloyeva Gulasal Fayzullo qizi – Universitet lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

3. Ushbu qarorning ijrosi Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.T. Jo'rayev zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi:** Buxoro davlat universiteti kengashining **9- yig'ilishi kun tartibiga** kiritilgan barcha masalalar muhokama qilindi va kengash o'z ishini yakunlaydi.

**Kengash o'z ishini tugatdi.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**BuxDU kengashi raisi** **O.X. Xamidov**

**BuxDU kengashi kotibi** **N.G. Dilova**